

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS
TA`LIM VAZIRLIGI
AL-XORAZMIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI**

Qo`lyozma huquqida

UDK 841.764 (092)

Koriyeva Dilnoza

**Xorazm folklor asarlarida o`zlashmalar(kitobat dostonlari
asosida)**

Mutaxassislik: 5A 120102 – Lingvistika (o`zbek tili)

Lingvistika (o`zbek tili) magistr akademik darajasini olish uchun

Ilmiy rahbar: f.f.n.

A.O`rozbayev

URGANCH-2013

MUNDARIJA

KIRISH.....	3-10
I BOB. XORAZM FOLKLOR ASARLARI LEKSIKASINING MAVZUIY-SEMANTIK GURUHLARI.....	11-37
1.1. Turdosh otlar.....	11-14
1.2. Qavm-qarindoshlik ifodalovchi soʻzlar.....	14-15
1.3. Ijtimoiy-siyosiy leksika.....	15-23
1.4. Diniy tushunchalar anglatuvchi soʻzlar.....	23-37
II BOB. XORAZM FOLKLOR ASARLARIDAGI OʻZLASHMA SOʻZLARNING TARIXIY-ETIMOLOGIK TAHLILI.....	38-53
2.1. Xorazm folklor asarlaridagi eroniy qatlamga mansub oʻzlashma soʻzlar.....	38-47
2.2. Arab lugʻaviy qatlamiga mansub oʻzlashma soʻzlar.....	47-53
III BOB. XORAZM FOLKLOR ASARLARIDAGI OʻZLASHMA SOʻZLARNING TARKIBIY TAHLILI.....	54-71
3.1. Eroniy lugʻaviy qatlamga xos oʻzlashma soʻzlarning tarkibiy tahlili.....	54-66
3.2. Arab lugʻaviy qatlamiga xos oʻzlashma soʻzlarning tarkibiy tahlili.....	66-71
XULOSA.....	72-73
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI.....	74-80

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Xalq og‘zaki ijodi namunalari uzoq davrlar davomida avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan va turmush tarzi, urf-odatlar, tarixi, an‘analari va orzu-istaklari to‘g‘risida muhim ma‘lumot beruvchi bebaho manbadir. Prezidentimiz “Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch” asaridagi “Tajovuzkor kuchlar xalqning eng buyuk boyligi bo‘lmish milliy qadriyatlari, tarixi va ma‘naviyatidan judo qilishga urinadi”¹ – degan fikrlari diqqatga sazovordir.

Xalq dostonlari o‘zining ko‘lami, badiiy-uslubiy vositalari va, eng muhimi, lisoniy xususiyatlarining qadimiyligi bilan ahamiyatlidir. Dostonlar tilida milliy tilimizga xos bo‘lgan eski leksik, grammatik elementlarning saqlanib qolganligi, shuningdek, ularning boshqa turkiy va turkiy bo‘lmagan tillar bilan bo‘lgan tarixiy aloqalari to‘g‘risida ma‘lumotlarning mavjudligi shubhasizdir. Shu jihatdan, xalq og‘zaki ijodi namunalarini tilshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq qilish bugungi dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. Ayniqsa, xalq dostonlarining har biri og‘zaki aytilganidan, asrlar osha allaqancha o‘zgarishlar bilan bizgacha yetib keladi va buning natijasida ayni asarning bir talay versiya va variantlari yuzaga keladi². Tabiiyki, bu holat ularning til xususiyatlari jihatidan ham xilma-xil o‘zgarishlarga uchrashiga olib keladi. Bu ayni vaqtda tilimizning rivojlanish bosqichlarini, ayrim lisoniy elementlar va hodisalarning evolyutsiyasini aniqlash imkonini beradi.

Xalq dostonlarini to‘plash va tadqiq qilish ishlari o‘tgan XX asrdan boshlangan bo‘lishiga qaramay, ularning aksariyatida bu materiallar folklorshunoslik nuqtayi nazaridan o‘rganilgan. Vaholanki, xalq dostonlari o‘zining ko‘lamdorligi va o‘ziga xos murakkab xarakterga egaligi bilan boshqa

¹ Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma‘naviyat. 2008. – B. 11.

² Ходи Зариф. Фольклор ва археология материалларини қиёсий ўрганиш масалаларига доир // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. 1968. №1. – Б. 27.

janrlardan farq qiladi. Ayniqsa, uning leksik boyligi xalq dostonlarini lisoniy jihatdan ham o'rganish zarurligini taqazo etadi. Bu tilshunoslikdagi bir qator muammolarni hal qilishda muhim manba bo'lib xizmat qila oladi. H.T.Zaripov dostonlar leksikasining ahamiyati haqida "bu boy leksika adabiy tilimizni boyitish uchun asosiy manbalardan hisoblanganidek, o'zbek tili tarixini, shevalar taraqqiyoti yo'llarini o'rganish uchun ham muhimdir"¹, – degan edi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbek tilshunoslari dostonlar tilini o'rganish sohada ham bir muncha tadqiqot ishlari olib borganlar. Sh.Shoabdurahmonovning "Ravshan" dostonining badiiy tili haqida" nomli nomzodlik dissertatsiyasi va bu mavzudagi bir qator tadqiqotlari bu sohadagi dastlabki ishlar desa bo'ladi². U doston leksikasiga tayangan holda xalq og'zaki ijodi materiallarining uslubiy xususiyatlari, ijro jarayonida sodir bo'ladigan fonetik hodisalar, sintaktik imkoniyatlari, leksik resurslar haqida muhim umumlashmalarni va xulosalarni o'rta tashlagan edi. Tadqiqotchilar dostonlar til xususiyatlarini yanada chuqurroq va kengroq tahlil qilish maqsadida ularni til birliklari asosida o'rganishga e'tibor qaratdilar. R.Rasulovning "Alpomish" dostonidagi so'zlarning o'zaro sintaktik bog'lanishi" nomli nomzodlik dissertatsiyasi (1975-y.) folklor asarlarining sintaktik qurilishiga bag'ishlangan bo'lib, unda so'zlarning o'zaro sintaktik munosabatidagi tobe bog'lanish, teng bog'lanish va ularning turlari to'g'risida muhim fikrlar bayon qilingan³.

S.Tursunovning nomzodlik dissertatsiyasi dostonlar tilining leksik xususiyatlariga bag'ishlangan. Uning "Alpomish" dostonining leksik xususiyatlari" deb nomlangan tadqiqotida doston leksikasining o'ziga xos jihatlari,

¹ Заринов Х. "Ўзбек халқ ижоди" кўп томлигига кирадиган асарларни тайёрлаш принциплари // Ислом шоир ва унинг халқ поэзиясида туган ўрни. – Тошкент: Фан, 1978, – Б. 133.

² Шоабдурахмонов Ш. Равшан достонида бадий фонетика элементлари // Ўзбек халқ ижоди. – Тошкент: Фан, 1967. – Б. 23-30; Шаабдурахмонов Ш. О поэтических особенностях языка поэмы "Равшан" Эргаша Джуманбулбул оглы. // Общественные науки в Узбекистане. 1970. №10. – С. 24-27; Шу муаллиф. Эргаш Жуманбулбул дostonларида ифода ва тасвирийлик // Ўзбек тили ва адабиёти. 1970, №5. – Б. 43-50; Шу муаллиф. "Равшан" дostonи ҳақида // Эргаш шоир ва унинг дostonчиликидаги ўрни. 2-китоб, – Тошкент: Фан, 1971, – Б. 146-172.

³ Расулов Р. Синтаксические связи между словами в дастане "Алпомыш". Автореф. дис ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1975. 24 с.

ayniqsa, frazeologizmlar, ularning oʻrni, hajmi va qoʻllanish chastotasiga alohida eʼtibor qaratgan¹. Ayrim tadqiqotchilar xalq dostonlari leksikasini tarixiy-etimologik jihatdan tahlil qiladi. Jumladan, Z.Xolmonovanning nomzodlik ishi “Shayboniyxon” dostoni leksik qatlamlari va ularning oʻziga xos xususiyatlari tadqiqiga bagʻishlangan². “Shayboniyxon” dostoni leksikasi” deb atalgan ushbu nomzodlik dissertatsiyasida asar leksikasi oʻz va oʻzlashgan qatlamga ajratilib, ularni Poʻlkan shoir – doston ijrochisi shevasining va adabiy tilga munosabati masalasi nuqtayi nazaridan tahlil qiladi.

Darhaqiqat, folklor asarlari va xalq shevalarining oʻzaro munosabati mavzusi dialektolog olimlarning ham diqqatini jalb qilgan. Bu sohada A.Ishaevning tadqiqotlari eʼtiborga loyiqdir³. U dostonlar tili lisoniy jihatdan ikki aspektda oʻrganilishi lozimligini taʼkidlaydi. Uning fikricha, dostonlar tilini leksik-morfologik xususiyatlariga koʻra va badiiy til vositalari jihatdan oʻrganish va tadqiq qilish yaxshiroq samara beradi. A.Ishayev bevosita dostonlar onomatikasi muammolarini ham oʻrganishni boshlab bergan. U dostonlarda uchraydigan joy nomlarini tahlil qilish natijasida ularni doston yaratilgan hududning tarixiy-etnografik xususiyatlari bilan bogʻlash va ayrim nomlarni boshqa hududdagi shunday onomastik birliklar bilan qiyosiy tadqiq qilish orqali lokallashtirish usulidan foydalangan⁴.

Xalq dostonlarining lisoniy xususiyatlarini oʻrganish mustaqqillik yillarida yana ham jadallashdi. Soʻnggi yillarda Xorazm folklori materiallarini oʻrganish ishiga eʼtibor kuchaydi. M.Jumaniyozova “Xorazm xalq qoʻshiqlari leksikasi”

¹ Турсунов С. Лексические особенности дастана “Алпомиш”. Автореф. дис ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1990. 19 с; “Алпомиш” дostonининг лексик-фразеологик хусусиятларига доир” // Ўзбек тили ва адабиёти”. 1986. №3. – Б. 60.

² Холмонова. З. “Шайбонийхон” дostonи лексикаси”. Филол. фанлари номзоди ... дисс ... автореф ... – Тошкент, 1998, 23 б.

³ Ишаев А. Дostonлар тилининг баъзи бир хусусиятлари // Эргаш шоир ва унинг дostonчиликдаги ўрни. – Тошкент: Фан, 1971. – Б. 73-80; Шу муаллиф. Халқ дostonлари лексикасидан // Ўзбек халқ ижоди. – Тошкент: Фан, 1977. – Б. 167-176; Шу муаллиф. “Чамбил” сўзининг этимологияси // Ислом шоир ва унинг халқ поэзиясида тутган ўрни. – Тошкент: Фан, 1978. – Б. 100-103; Шу муаллиф. Халқ дostonлари лексикасига оид кузатишлар // Ўзбек тили ва адабиёти. 1980. №5. – Б. 57-64.

⁴ Ишаев А. Шоҳсанамнинг ватани қаер? // Фан ва турмуш. 1971. №11. – Б. 26-27.

(1999-y.), J.Xolmurodova “Shimoliy Xorazm dostonlarining til xususiyatlari” (2000-y.) mavzulari bo‘yicha nomzodlik dissertatsiyalarini himoya qildilar.

Mavzu doirasidagi S.S.Ro‘zimboyevning “Janubiy Xorazm dostonlarining lisoniy xususiyatlari (“Shahriyor” va “Malikayi Zavriyo” qo‘lyozma dostonlari asosida)” nomli nomzodlik ishi e‘tiborga loyiqdir¹. Chunki bu ish turdosh izlanishlardan farqli ravishda kitobat qilingan dostonlar tadqiqiga bag‘ishlangan. Qo‘lyozma dostonlarning og‘zaki dostonlardan farqli jihati shundaki, ular juda uzoq muddat oldin yozib olingan, kitobat qilingan. Shu sababli ular keyingi avlodga o‘zgarmas matn holatida yetib kelgan. Bu esa ularda tilimizning ancha qadimiy lisoniy xususiyatlari saqlanib qolganligi bilan ahamiyatlidir.

Xalq dostonlari tilini o‘rganish borasida S.M.Sariyevning “Xorazm “Go‘ro‘g‘li” dostonlarining qo‘lyozma variantlari” nomli dissertatsiyasi² ham muhim material vazifasini o‘tashi bilan ahamiyatlidir. A.A.Xoliqovning “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostoni tilining leksik-semantik xususiyatlari” nomli tadqiqotida biz o‘rganayotgan masalalar bo‘yicha ham ayrim fikrlar bildirilgan³. Xalq dostonlarining til xususiyatlari masalasini tadqiq qilishda qoraqalpoq olimi O.Bekbaulovning xizmatlari ancha salmoqlidir. Uning “Qahramonlik eposining arab-forsiy leksikasi va uning tarixiy-lingvistik xarakteristikasi”⁴ deb nomlangan monografiyasi Orolbo‘yi hududida yashab kelayotgan xalqlarning qadimiy, tarixiy aloqalari va buning aholi tilida, ayniqsa, xalq og‘zaki ijodida aks etish masalalarini anglash borasida ancha muhimdir. Muallif asosan o‘z fikrlarini qoraqalpoq dostonlari leksikasida qo‘llanadigan arabiy va forsiy so‘zlar haqida yutirgan bo‘lsa ham, ular o‘zbek tili va tilshunosligi uchun ham katta ahamiyatga ega. Chunki tadqiqotchi monografiyada keltirgan va izohlagan ikki ming besh yuzga yaqin

¹ Рўзимбоев С.С. Жанубий Хоразм дostonларининг лисоний хусусиятлари. (“Шахриёр” ва “Маликаи Завриё” қўлёзма дostonлари асосида). Филол. фанлари номзоди ... дисс ... автореф ... – Тошкент, 2000, 25 б.

² Сариев С.М. Хоразм “Гўрўғли” дostonларининг қўлёзма вариантлари. Филол. фанлари номзоди ... дисс ... автореф ... – Тошкент, 2007, 23 б.

³ Холиқов А.А. “Гўрўғлининг туғилиши” дostonи тилининг лексик-семантик хусусиятлари. Филол. фанлари номзоди ... дисс ... автореф ... – Тошкент, 2009, 24 б.

⁴ Бекбаулов О. Қаҳарманлық эпостың, араб-парсы лексикасы ғам аның тарихый-лингвистикалық харақтеристикасы. Нөкис, Қарақалпақстан. 1979

arabiy va forsiy soʻzlarning deyarli barchasi Xorazm xalq dostonlari tilida ham baʼzi fonetik farqlar bilan qoʻllangan. Bu fakt Xorazm va qoraqalpoq xalq dostonlarining ildizlari mushtarak ekanligidan darak beradi.

Urganch Davlat universiteti olimlari S.R.Roʻzimboyev rahbarligida xalq dostonlarining ogʻzaki va kitobiy variantlarini baxshi va qissaxonlardan yozib olib, toʻplab nashr qilishdi¹. Bu dostonlar “Goʻroʻgʻli” va “Oshiqnoma” turkumlarini tashkil qilib, hozir ularni soni oʻttizdan oshiqdir. Ular nafaqat vohamizda istiqomat qiluvchi oʻzbek, turkman, qoraqalpoq xalqlarining, balki Kavkaz va Sibir oʻlkalarida yashovchi turkiy qavmlarning ham tarixiy aloqalari haqida maʼlumot beruvchi muhim merosdir. Mazkur tadqiqotning vujudga kelishida ushbu dostonlar materiallari asos qilib olindi. Xalq dostonlari lisoniy xususiyatlari haqida ayrim fikrlar aytilgan boʻlsa ham, ularning muhim qismi hisoblangan oʻzlashma lugʻaviy birliklar hozirgacha ilmiy tadqiqot obʼekti boʻlgan emas. Zero, hozirgi davr xalqimiz tarixining ayrim noxolis yoritilgan sahifalari qayta koʻrishga muhtoj ekanligini taqozo etmoqda. Shuning uchun ham, uzoq davrning mahsuli boʻlgan oʻzlashmalarni tahlil qilish maʼlum maʼnoda bu sohaga ham koʻmak berishi shubhasizdir.

Xorazm shevalari leksikasini kuzatish mazkur shevada xorazmiy tili elementlari saqlanib qolganini koʻrsatadi. Garchi, bu til XIII-XIV asrlarda butunlay turkiy tillar bilan aralashib, assimilyatsiyalashgan boʻlsa ham, hozirgi kunda Xorazm shevalarida shunday leksik elementlar saqlanganki, shubhasiz, bu tilning eron tillari oilasiga, aniqrogʻi, uning sharqiy tarmogʻiga mansubligini isbot etadi. Koʻpgina lugʻaviy elementlar hozirgi fors tillari asosida juda aniq izohlanadi.

Dissertatsiya ishining ilmiy-tadqiqot rejalari bilan bogʻliqligi. Dissertatsiya mavzusi Urganch Davlat universiteti oʻzbek tilshunosligi kafedrasida oʻrganilayotgan “Oʻzbek tilshunosligining dolzarb muammolari” mavzuidagi istiqbolli rejasi tarkibiga kiritilgan.

¹ Гўрўғли, Урганч, 2004; Ошиқнома, I китоб, Урганч, 2006; II китоб, 2006; III китоб, Урганч, 2008; IV китоб, Урганч, 2009. (Нашрга тайёрловчилар С.Р.Рўзимбоев, С.С.Рўзимбоев, Г.Эшчанова).

Tadqiqotning maqsadi. Ishning asosiy maqsadi Xorazm folklor asarlarida qo'llanilgan o'zlashma so'zlarni lingvistik tahlil qilish va umumlashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

- Xorazm folklor asarlaridagi o'zlashma so'zlarning mavzuiy-semantik guruhlarini belgilash va ushbu guruhlariga kiruvchi so'zlarni tasniflash;
- o'zlashma so'zlarni lug'aviy qatlamlarga ajratish, ularni o'zbek tili leksikasining umumiy tizimi bilan qiyoslash;
- o'zlashma qatlamga mansub so'zlarning o'zaro qarindosh bo'lmagan, lekin yaqin madaniy, siyosiy, geografik, diniy mushtaraklikka ega bo'lgan xalqlar tillarida bir-biriga o'zlashish va singish sabablari, lingvistik va ekstralingvistik faktorlarni aniqlash;
- o'zlashma so'zlar tizimiga mansub so'zlarning tarkibiy tahlilini diaxron va sinxron aspektlar asosida tadqiq qilish;
- o'zlashma so'zlarning hozirgi o'zbek adabiy tilida turli lisoniy hodisalarga uchrashi, ularda ro'y beradigan fonetik o'zgarishlar kabilarga e'tibor qaratish.

Tadqiqot ob'ekti va predmeti. Ishning tadqiqot ob'ekti sifatida Xorazm dostonlarining S.R.Ro'zimboyev rahbarligida amalga oshirilgan nashri tanlandi va Ustoz tomonidan taqdim qilingan elektron variantidan ham keng foydalanildi¹.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqot doirasida murakkab masalalar yuzasidan bildirilgan fikrlarda yetakchi o'zbek tilshunoslari hamda xorijlik taniqli olimlarning o'zbek tili leksikasi muhim nazariy kontseptsiyalariga tayanildi.

Mavzuni yoritishda diaxron hamda sinxron aspektlarda qiyosiy, tavsifiy metodlardan foydalanildi.

Himoyaga olib chiqilayotgan asosiy holatlar:

1. Xorazm dostonlaridagi o'zlashma so'zlarni o'rganish ularning butun leksik fondi tadqiqida muhim o'rin tutadi.

¹ Гўрўғли, Урганч, 2004; Ошиқнома, I китоб, Урганч, 2006; II китоб, 2006; III китоб, Урганч, 2008; IV китоб, Урганч, 2009. (Нашрга тайёрловчилар С.Р.Рўзимбоев, С.С.Рўзимбоев, Г.Эшчанова).

2. Dostonlardagi o‘zlashma so‘zlarni tadqiq etish keyinchalik boshqa janrlar (ertak, maqol) misolida ham ushbu muammoni o‘rganishda muhim amaliy manba sifatida xizmat qilishi mumkin.

3. Dostonlardagi eroniy va arabiy qatlamlarga xos o‘zlashma so‘zlarning tarkibiy tahlili ular tarixan mansub bo‘lgan tillarning morfologik xususiyatlarini o‘zida aks ettiradi va ularni ayni shu jihatdan o‘rganish folklor leksikasi tadqiqida muhimdir.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilar bilan belgilanadi:

- Xorazm dostonlaridagi o‘zlashma qatlamga mansub so‘zlar keng tahlil qilindi;
- ushbu lug‘aviy birliklar mavzuiy-semantik guruhlariga ajratildi;
- ularning genetik tahliliga oid kuzatishlar bayon qilindi;
- dostonlarda o‘zlashma so‘zlardan foydalanish ko‘lami xususida aytim fikrlar bayon qilindi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Ushbu tadqiqot o‘zbek tilida o‘zlashma so‘zlar shakllanishini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Dissertatsiyada tadqiq qilingan materiallar o‘zbek folklor asarlari tilining izohli lug‘atini, o‘zbek tilidagi o‘zlashma so‘zlarning etimologik lug‘atini yaratishda qo‘l keladi.

Natijalarning joriy qilinishi. Tadqiqot natijalari bo‘yicha Urganch Davlat universiteti o‘zbek tilshunosligi kafedrası qoshidagi ilmiy-nazariy seminar majlislarida (2012-yil), magistrantlar ishtirokidagi ilmiy konferentsiyalarda ma‘ruzalar qilingan.

Ishning sinovdan o‘tishi. Mazkur tadqiqot mavzusi Urganch Davlat universiteti Ilmiy kengashida tasdiqlangan.

Natijalarning e‘lon qilinganligi. Tadqiqot natijalari bo‘yicha 2012–2013-yillarda Al-Xorazmiy nomidagi Urganch davlat universiteti magisrtantlari ilmiy-nazariy anjumanlarida ma‘ruzalar o‘qilgan. Dissertatsiyaning asosiy mazmuni

e'lon qilingan maqolalarda o'z aksini topgan. Ish yuzasidan 2 ta maqola e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, ikki bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, uning umumiy hajmi sahifani tashkil etadi.

I BOB. XORAZM FOLKLOR ASARLARI LEKSIKASINING MAVZUIY-SEMANTIK GURUHLARI

Har bir asar leksikasi qanday mavzuiy-semantik guruhga mansub soʻzlarni qamrab olishi, ularning bir-biriga koʻlam jihatidan qay darajada muvofiq kelishi uning mavzusi, janri, moʻljallangan oʻquvchilar ijtimoiy toifasi kabi koʻplab omillarga bogʻliq boʻladi. Shuning uchun ham “leksika tilning boshqa sohalariga nisbatan turli ichki va tashqi taʼsirlarni oʻzida mujassam etgani bois, xalqning madaniy, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi oʻzgarish va oʻsishni aniqlashtirishda koʻmaklashadi”¹. Ushbu tabiiy jarayonni eʼtiborga olib, har bir asar leksikasining mavzuiy-semantik guruhlari oʻziga xos tizimga ega boʻlishi, ularning bir-biri bilan bogʻliqlik darajasi turlicha boʻlishini nazardan soqit qilmaslik kerak.

Yuqorida bayon qilingan mulohazalar hamda ushbu tahlillardan xulosa chiqargan holda aytish mumkinki, mavzuiy-semantik guruhlar tasnifini qatʼiy belgilash gʻoyat murakkab masaladir. Bu borada tarixiy va folklor asarlari leksikasi boʻyicha amalga oshirilgan tadqiqotlardagi ushbu masala yoritilgan oʻrinlarni umumlashtirish, shuningdek, xalq shevalari leksikasi sohalar boʻyicha tasnifi berilgan ishlar² hamda ayrim shevalar leksikasi tahlili berilgan tadqiqotlarda³ bayon qilingan mulohazalarni eʼtiborga olib ish tutish maqsadga muvofiq boʻlardi.

Bu borada amalga oshirilgan tajribalar⁴ asosida Xorazm folklor asarlarilari leksikasini quyidagi mavzuiy-semantik guruhlariga ajratgan holda tahlil qilish mumkin:

¹ Абдулхайров М. “Девони Мунис” тилининг лексик катламлари: Филол. фанлари номз. дисс. автореф. – Тошкент, 1974. – Б. 16.

² Носиров Ш. Шевалар лексикасининг соҳалар бўйича группалари // Ўзбек шевлар лексикаси. – Тошкент: Фан, 1991. – Б. 120-180.

³ Холмедова З. Ўзбек тилининг қарноқ шеваси лексикаси: Филол. фанлари номз. дисс. автореф. – Тошкент, 2006. – Б. 5-9.

⁴ Исхаков Ф. Наблюдения по лексике в области прилагательных в тюркских языках // Историческое развитие лексики тюркских языков. – М. 1961.; Исмоилов И. Туркий тилларда қавм-қариндошлик терминлари. – Тошкент: Фан, 1966. – 150 б.; Номиханов Ц. Исследования по тюркским и монгольским языкам: Автореф. дисс. ...док. филол. наук. – Алма-Ата, 1966; Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. – Тошкент: Фан, 1983. – 157 б.; Умаров Э. Лексико-грамматическая характеристика фразеологизмов

I.1. Turdosh otlar.

1. Shaxs tushunchasini ifodalovchi soʻzlar:

a) shaxs tushunchasini umumlashtirib ifodalovchi soʻzlar: *odam*, *odamizod* – *odam*, *inson*: Ammo yuzi, husni jamoli kun-kunga, ziyoda boʻlib, koʻrgan *odamning* aqlini shoshirib, hamma unga havasda boʻldilar. (5:5).

Alisher Navoiy tilida “*odam*” maʼnosida *odamiy* soʻzi qoʻllanilgan boʻlib, *Odam* soʻzi *Odam* antroponimi sifatidagina ishlatilgan. Bundan tashqari *odamiy* soʻzi nozik maʼno qirralariga ham ega.

Odamzoda – *odam* farzandi, *odamzod*:

Ushbu daryo ichra koʻrdim bir ajib zebo yigit,
Soʻzlaganda, xush suxandir bulbuli shaydo yigit,
Nogahon koʻrdim yuzin-mudom ajib barno yigit,
Oldi jonim yuzi anvar, qomati raʼno yigit,
Asli *odamzodadan* hech boʻlmagʻay paydo yigit. (5:33).

Inson – *inson*. Bu soʻz *odam* soʻziga nisbatan xos, ijobiy maʼno anglatishi dostonlar leksikasida ham koʻrinadi: Sen ham farzandli boʻlasan, sening farzanding barokatli boʻladi. Undan paygʻambar, solih *insonlar*, mamlakat sultonlari tugʻiladi. (5: 128).

b) shaxs tushunchasini yoshga koʻra farqlab ifodalovchi soʻzlar:

Bobo – *bobo*, ota tomondan ajdod:

Yozgʻitingda yaxshiliklar bor boʻlsin,
Yaratganning oʻzi madadkor boʻlsin,
Bobong Ibrohimning ruhi yor boʻlsin,

«Хазойин-ул-маъоний» Алишера Навои: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Л, 1968. – 17 с.; Мамадов Х. Лексико-стилистические особенности художественной прозы Алишера Навои: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1960. – 21 с.; Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. – Тошкент: Фан, 1983. – 157 б.; Дадабоев Х. Тарихий ҳарбий терминлар лугати. – Тошкент: Университет, 2003; Военная лексика в староузбекском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1981. – 21 с; Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв. – Ташкент: Ёзувчи, 1991. – 186 с.; Бегматов Э. Ўзбек исмлари маъноси. – Тошкент: Ўзбек миллий энциклопедияси, 2007. – 608 б.; Хусанов Н. XV аср ўзбек ёзма ёдгорликлари тилидаги антропонимларнинг лексик-семантик ва услубий хусусиятлари. I китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1996. – 125 б.; II китоб – Тошкент: Ёзувчи, 1997. – 134 б. ва бошқалар.

Ko‘rgan tushing bolam, muborak bo‘lsin. (5: 130).

Bu so‘z kekxa yoshdagi insonlarga nisbatan umumiy murojaat ma’nosida ham keladi:

Javobi *bobo*:

To‘rt kishining piridurmiz,

Eranlarning eridurmiz,

G‘iyos xoja Xizrduurmiz,

Ollo yoring bo‘lsin, bolam. (5: 193).

Xotin (qadimgi forsiy) va *ayol* (arabcha) – 1) ayol, ayol jinsining umumiy nomi; 2) erli ayol. Podsho *xotinlarining* orasida Shohijahon degan bir ayoli bor erdi. Vazirning suyuqli bir *ayoli* bo‘lib, unga Shohixo‘bon deb nom berar erdilar. Kunlardan bir kun Shohijahon homilador bo‘ldi. Uning izi bilan bir haftadan so‘ng vazirning *xotini* Shohixo‘bon ham homilador bo‘ldi. (5: 4-5).

Bu so‘z qadim yozma manbalarda, jumladan, “Tafsir”da *avrat*, *ewluk*, *urag‘ut* so‘zlarining ma’nodoshi sifatida ham qo‘llangan¹. K.Musaev qrim-tatardan boshqa g‘arbiy qipchoq turkiy tillarining barchasida *qato`n* so‘zi turli fonetik variantlarda – qaraimda *qato`n*, *kato`n*, qorachoy-bolqor, qumiqda *qato`n* (qrim-tatarda esa *apaqay*) ishlatilishini yozadi². Bu so‘z aslida so‘g‘dcha bo‘lib, *xvatauni* “malika” ma’nosini anglatgan³. V.A.Livshits va A.L.Xromovlar uning muzakkar shakli *xutan* bo‘lganini qayd etadilar⁴. Bu so‘z mo‘g‘ul tilida *xatan* shaklida ishlatilgani uning turk-mo‘g‘ul tillariga ancha qadim davrlardayoq o‘zlashganini ko‘rsatadi.

¹ Боровков А.К. Лексика среднеазиатского тefsира XII-XIII вв. – М.: 1963. – С. 78,93,94; Махмудов Қ. А.К.Боровков эски ўзбек тили луғатларининг тадқиқотчиси сифатида // Ўзбек тили тарихи масалалари. – Тошкент: Фан, 1977. – Б. 181.

² Мусаев К.М. Лексика тюркских языков в сравнительном освещении. – М.: Наука, 1975. –С. 265.

³ Боголюбов М.Н. Несколько иранских этимологий // Вопросы грамматики и истории восточных языков. – М.-Л., 1958. – С. 105.

⁴ Лившиц В.А., Хромов А.Л. Согдийский язык // Основы иранского языкознания. Среднеиранские языки. – М.: Наука, 1981. – С. 378.

1. 2. Qavm-qarindoshlik ifodalovchi soʻzlar¹. Ushbu tipdagi soʻzlar oʻz navbatida quyidagi kichik mavzu guruhlariga ajraladi:

a) qavm-qarindoshlikni umumlashtirib ifodalovchi soʻzlar:

Avlod – avlod, nasl, urugʻ. Lugʻaviy jihatdan arabcha *valad* – *bola* soʻzining koʻpligi boʻlgan mazkur soʻzda maʼno kengayib, keyinchalik “nasl”, “urugʻ”, “xesh-aqrobo” mazmunlarini kasb etgan. Xorazm folklor asarlarida bu soʻz har ikkala mazmunda ham qoʻllangan: Ammo roviylar andoq rivoyat qilurlarkim, qadim zamonda oʻtgan Qiyomshohning avlodidin, odamning naslidin pushtma-pusht zuryodsiz Shohsuvori olam, koʻp moli dunyo xayrod etib, farzand tilar erkan. Tilagi qabul boʻlmas erkan. (2, 282).

Madrasa ichinda olimu omil,
Har ilm oʻqisa taʼlima komil,
Farzandi Murtazo *avlodi* Rasul,
Xoʻja, Said goʻzzi yoshlar omonmi? (2, 318).

b) qarindoshlikni muayyanlashtirib ifodalovchi soʻzlar:

Ona – ona, volida:

Avvalo dunyogʻa keldim,
Kaʼbam *onam* xush qol endi,
Qynab-oʻsgan oʻvbolarim,
Xonadonim, xush qol endi. (2, 165)

Ayrim tadqiqotchilar *doyi* soʻzini substart leksikaga oid deb hisoblashadi. Uning etimologik tahlili oʻz qatlamga mansubligini koʻrsatadi.

Birodar – ogʻa-ini. Ushbu qarindoshlikni ifodalovchi soʻz keyinchalik *doʻst*, *yor* maʼnolarini kasb etgan:

Birodarlar, bugun bir ahvol koʻrdim,

¹ Покровская А.А. Термины родства в тюркских языках // История развития лексики тюркских языков. – М.: Издательство АН СССР, 1967.; Исмоилов И. Туркий тилларда қавм-қариндошлик терминлари. – Тошкент: Фан, 1966. –150 б.; Туркий тилларда тўнғич, кенжа, эгизак сўзлари // Ўзбек тили ва адабиёти. 1975. №2; Туркий тилларда баъзи бир сўзлар этимологияси ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. 1986. №4.

Xiromonjon kirdi tushima mani.
 Qo'shilibon necha safolar surdim,
 Yorim kelib kirdi tushima mani. (2, 267).

1. **3. Ijtimoiy-siyosiy leksika:** Xorazm folklor asarlaridagi ijtimoiy-siyosiy leksikaga mansub so'zlar ham o'z navbatida muayyan ichki guruhlariga ajraladi. Ularni quyidagicha belgilash mumkin: a) mansab va unvonni anglatuvchi so'zlar. Bu mavzu tilshunosligimizda maxsus tadqiq qilingan bo'lishiga qaramay¹, har bir davrda amalda bo'lgan mansab va lavozim, unvonlar xususida nisbatan to'laroq tasavvur hosil qilishi uchun o'sha davrda yaratilgan tarixiy asarlar materiallarini bir-biriga qiyoslash katta yordam beradi. Shuning uchun ham mavzuga doir adabiyotlarda mansab va unvon nomlari mavjud materiallarga asoslanib, bir-biridan farqlangan holda kichik guruhlariga ajratilgan. Masalan, N.A.Baskakov Xiva xonligidagi mansab va unvon nomlarini yuqori va ma'muriy hukumat egalarining mansab va unvonlari, Xiva xonligidagi saroy amaldorlari unvonlari, harbiy mansab va unvonlar, diniy mansab va unvonlar, sud tizimi nomenklaturasi, soliq to'lovchi tabaqalar mansab va unvonlari tarzda 6 guruhga ajratib tahlil qiladi². XI-XIV asr o'zbek yozma yodgorliklarida ijtimoiy-siyosiy terminlarni tadqiq qilgan H.Dadaboev o'z tasnifida tadqiqot obyektining kengligi bois ushbu mavzuiy-semantik tizimni bir necha kichik guruhlariga ajratgan. Masalan, birgina davlat apparati mansablari nomlarini saroy xizmatidagi shaxslar unvonlari, ma'muriy boshqaruv xodimlarining unvon nomlari, viloyat va shahar boshqaruvida mas'ul shaxslar unvon nomlari kabi kichik guruhlariga ajratgan³. Olim shu tarzda ekspluatator sinf vakillarini ifodalovchi terminlarni ham bir necha guruhga bo'ladi⁴. Z.Xolmanova ham ijtimoiy-siyosiy tushunchani ifodalovchi semantik

¹ Мўминова А. Ўзбек тилида мансаб ва унвон номларининг лексик-семантик таҳлили: Филол. фанл. номз. дисс. – Тошкент, 2000. – 156 б.

² Баскаков Н.А. Титулы и звания в социальной структуре бывшего Хивинского ханства // Советская тюркология. – 1989. – №1. – С.63-71.

³ Дадабаев Х. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв. – Ташкент: Ёзувчи, 1991. – С. 43-55.

⁴ Дадабаев Х. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв. – Ташкент: Ёзувчи, 1991. – С. 61-69.

maydon doirasida mansab-martaba bildiruvchi semantik guruhni 6 ta kichik guruhga bo‘lib o‘rganadi¹.

Xorazm folklor asarlari materiallari asosida mansab va lavozim nomlarini o‘z navbatida quyidagi kichik guruhlariga ajratish mumkin: Mutlaq hukmdor (monarx) tushunchasini ifodalovchi so‘zlar. Mumtoz o‘zbek adiblari, jumladan, Alisher Navoiy asarlarilari tilida “monarx” tushunchasini ifodalovchi bir qancha so‘zlar mavjud. Ular ma’lum asar yozilgan yoki voqealari bayon qilinayotgan davr, janri kabi jihatlarni e’tiborga olgan holda bir-biriga ma’nodosh sifatida, ayrim o‘rinlarda esa muayyan ma’no farqlari bilan ishlatilgan. Xususan, Xorazm folklor asarlarida bu tushunchani ifodalovchi bir necha so‘z ishlatilgan.

Masalan, *podshoh* so‘zining Xorazm folklor asarlarida quyidagi ma’no qirralari ko‘zga tashlanadi: 1. Podshoh, mamlakatning mutloq hukmdori:

Ey bobo, bu bog‘ podshohning bog‘idir, tez chiqib ketgil, agar bog‘bon ko‘rsa, teringga somon tiqur, – dedilar. (1, 17).

Mohi munavvardir yuzi,
Shakardin shirindir so‘zi,
Mamatxon *podshohning* qizi,
Sayyodxon bog‘dadir-bog‘da. (1, 21).

Bu so‘zning o‘zbek mumtoz adabiyoti nasriy asarlarida ishlatilgan ma’nolari yanada kengroq. Jumladan, Alisher Navoiy asarlarida uning quyidagi ma’nolari ko‘zga tashlanadi: 1. Hukmdor: Shayx Abu Said ul darvesh sari boqib dediki, har kim tilasaki, ikki podshohni bir yerda bir vaqtda bir taxtda ko‘rgay, ko‘rsun! (“Nasoyim”, 217). 2. Mutloq murodiga erishgan, ehtiyojlardan xoli inson: Ul dedi: sanga, bir vasiyat qilaykim, ham bu dunyoda podshoh bo‘lg‘aysen va ham ul dunyoda. (“Nasoyim”, 26). 3. Haq Taoloning sifati. Bu ma’no asmoysi husnodan biri al-Malik sifati bilan muvofiq keladi: Podshohlar podshohisen, bandalig‘ingda qaridim. Meni ozod qil! (“Nasoyim”, 201).

¹ Холманова З. “Бобурнома” лексикаси. – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 91-96.

Sulton soʻzi tarixan turli davrlarda turlicha maʼno kasb etib kelgan:

1. X asrlarda musulmon mamlakatlari hukmdori. XI asrda saljuqiylardan boshlab bu unvonni arab xalifaligidan mustaqil davlat hukmdorlari olgan. Hozirda mazkur unvon davlat boshqaruvi monarxiya boʻlgan baʼzi islom davlatlaridagina saqlanib qolgan. Masalan, Brunej sultoni. 2. Moʻgʻul feodal imperiyasi inqirozidan keyin podshohlik qilmagan chingiziylar sulton deb yuritilgan¹. Alisher Navoiy asarlarilarida bu soʻz hukmdor mazmunini umumlashtirib ifodalovchi soʻzlardan biri hisoblanadi. Masalan,

Shahliq etgandin ne hosil faqr sirrin bilmayin,
Hech kim mulki baqo sultoni boʻlgʻonmu ekin,
Foniyi mahz oʻlmayin *sulton* Abulgʻozi bikin,
Ey Navoiy, davlati boqiy tilarsen vaslidin,
Oni kasb etmak fano boʻlmay, ne imkon oqibat?²

Sulton – hukmdor, sulton:

Ey sultonim, bu dunyodin,
Kimlar oʻtmadi oʻgʻilsiz.
Bir xudoning sevar doʻsti,
Rasul ham oʻtdi oʻgʻilsiz...
Man bilmadim bu qoʻshinning sonini,
Tanimadim *sultonini*, xonini,
Oshiq Hamro deyar, ajal toʻnini,
Bichishali, jon Sayodim, na dersan? (1, 59).

Eʼtiborlisi shuki, Xorazm folklor asarlarida bu soʻzning oʻzbek mumtoz adabiyotidagi kabi *ulugʻ shayx* maʼnosi ham uchraydi:

Koʻpdir bir ollogʻa nolishim, zorim,
Sulton Xubbi. bugun boʻlgʻil dastgirim,
Yaratgʻon olloxim, yo bir-u borim,

¹ Чориев З. Тарих атамаларининг қисқача луғати. – Тошкент: Шарк, 1999. – Б. 54.

² Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 1-том. – Тошкент: 1987. – Б. 591.

Yetishar kunlaring keldi, azizim.

Shunga o'xshash o'zbek mumtoz asarlarida *shahanshoh* so'zi asl ijtimoiy-siyosiy mazmunida emas, o'z davri va davrasining peshvosi, tan olingan shaxs mazmunida ishlatilgan: "Ani ulamoning *shahanshohi* der ermishlar va judu shijoatda zamonining yagonasi ermish". ("Nasoyim", 26). O'zbek mumtoz adabiyoti asarlarida ushbu guruhga mansub *shoh* so'zining ma'no qirralari ancha keng bo'lib, xususan, tasavvufiy mazmundagi baytlarda uning darvish tushunchasiga zid xos mazmun ifodalagan. Masalan, *shoh* yurub olam ochar, darvish olamdin qochar¹ yoki *shohning* munglug' mushavvashlar bila ne nisbati² kabi.

Dostonlarda *shoh* so'zining quyidagi ma'no qirralari ko'zga tashlanadi:

1. Shoh, mamlakat hukmdori:

Otim Hamro Xisrav *shohning* o'g'liman,
Saning uchun sinalari dog'liman,
To o'lguncha iqroga bog'liman,
Qirq kunlik yo'l bo'lsa saning makoning. (1, 101).

Aydi: Ey *shohi olam-u* ey sultoni bokaram, sizningdek sulton zodaning maningdek xushro'y kanizi hech olamg'a kelgan bo'lmog'ay deb, o'zini andog' tavsif qildikim, jahong'a sig'madi. (1, 127).

2. Aziz inson:

Uchradim emdi shohimg'a,
Arzim aytay xudoyimg'a,
Og'zimdin chiqqan ohimg'a,
Tog'lar tebrandi-tebrandi. (1, 108).

3. Har bir toifaning sardori, ulug' inson. Xususan, parchadagi *ummat shohi* birikmasidan Muhammad alayhissalom tushuniladi:

Behishdin oqon daryosan, nuri xudo joning saning,

¹ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. 1-том. – Тошкент: Фан, 1987. – Б. 35.

² Алишер Навоий. Мукаммал асар тўплами. Йигирма томлик. 3-том. – Тошкент: Фан, 1990. – Б. 437.

Havzi kavsardin safolisan do‘lanib oqg‘oning saning.
 Dur, go‘harning konisan, jumla nabodot jonisan,
 Chashmai ob hayvonisan, durri gavhar koning saning.
 Haq etursin murodina, jumla *ummatni shohina*,
 Muhammad Mustafo dargohina aylanib oqg‘oning saning.

Xalifa so‘zi xususida mavjud adabiyotlarda mufassal ma‘lumot berilgan¹. Ularni umumlashtirganda *xalifa* dastlab payg‘ambar alayhissalomdan keyin islom davlatini boshqargan shaxslar, umaviylar, abbosiylar, usmoniylar kabi suloladan chiqqan hukmdorlar hamda lug‘aviy ma‘nosi (yordamchi, izidan boruvchi)ga muvofiq tariqat pirlari, diniy maktab muallimlarining yaqin kishisi, yetuk shogirdlari mazmunini kasb etganini ko‘ramiz. Xorazm folklor asarlarida bu so‘z ijtimoiy-siyosiy termin – xalifa hamda o‘rinbosar, biror ishni davom qildiruvchi shaxs ma‘nolarida ishlatilgan:

1) Ammo roviylar andog‘ rivoyat qilurlarkim, Zulumot shahrinda bir podshoh bor erdi. Otig‘a Malik Qaytus der erdilar o‘zi kofir, badmazhab erdi. To‘rt shahar aning farmonida erdi. Turkiston, Iroqiston, Zulumot, Hirot tobelari erdi. Kunlardan bir kun *xalifadin* noma keldi. Musulmon bo‘lsin deb. (1, 245).

2) San *xalifa* bo‘lsang, man bo‘lam tolib,
 Jon chiqib jasaddin, gavda bo‘sh qolib,
 Salbiniyoz bog‘inda qoldi mo‘ng‘ayib,
 Qoldig‘i yodima tushar, yig‘laram. (1, 72).

Hokim so‘zi Xorazm folklor asarlarida 1) biror ma‘muriy hudud hokimi, 2) mamlakat hukmdori ma‘nolarida ishlatilgan: 1) So‘ngra podsho qurondoz, munajjimlarni, falakiyot ilmidan xabardor ulamolarni, *hokimlarni*, beklarni yig‘ib bularning har biriga loyiq in‘om-ehsonlar berib: “Bu mohi anvarga bir ot qo‘ying”- dedi. (5, 3). 2) Shul vaqtda Hasanxon podsho ham keldi. Shahri Zulumotg‘a kirib

¹ Ислам. Энциклопедический словарь. – Москва: Главная редакция восточной литературы, 1991. – С. 268; Бартольд В. Соч., Т. 6. – С. 17-78; Gibb H. A. R. The evolution of government in early islam. – Stl. 1955, 4, 5 -7; Tyan E. Institutions u droit publique musulman. I. Le califat; 2. Le califat et sultanat. P., 1954-1957; Sourdel D., Lambton K.S. Khalifa.– El. NE, 4, 937-950.

qirq kun to'y-u tomosha etib, butxonalarini yiqib, o'rnig'a masjid, madrasa bino qildilar o'zlaridin *hokim* qo'yib, ming besh tevaga mol yuklab, sog'-salomat o'z yurtlariga qaytdilar. (1, 275).

b) turli darajadagi mansab va lavozim nomlari. *Vazir* so'zining o'zagini mas'uliyat olmoq, yuk ko'tarmoq ma'nosidagi *vazara* fe'li tashkil qiladi. Islom davlatlarida ushbu mansabning yuzaga kelishi va turli davrlardagi vazifalari adabiyotlarda mufassal yoritilgan¹.

Dostonlar muayyan tarixiy voqealarni bayon qilmagani uchun undagi *vazir* so'zi umumiy mazmun kasb etgan: Kunlardan bir kun Shohnazarning otasi Hasanxon *vazir* kasal bo'ldi. (2, 8).

d) diniy-siyosiy rutba va mansablarni ifodalovchi so'zlar. Qozi musulmon jamoasidagi sudya. Qozilar din, oila, meros va oilaviy, jinoiy ishlar masalasiga oid hukmlar chiqarganlar².

Xuroson yurtinda Aqcha bozilar,
Anda mulla bo'lsa, munda *qozilar*,
Azalda yozilg'on bizga yozilar,
Yozanda anglayim bilki kelmonam. (2, 41).

Shayx so'zi Xorazm dostonlarida quyidagi ma'nolarda ko'zga tashlanadi:

1. Shayx, vali. Jumladan, quyidagi parchadagi Shayxi Kabir Shayx Najmiddin Kubroning Xorazm xalqi orasida tarqalgan laqabidir:

Alband aytar:bo'ldim sabil,
Sattor o'zi bo'lg'ay kafil,
Tig' ko'targan *shayxi Kabir*,
Alar mening yo'ldoshimdur. (2, 148).

Shuningdek, Xorazmda mashhur avliyolardan *Shayx Jalil* nomi ham tilga olingan:

¹ Goltein S.D. The origine of the vizirate and its true character. – Studies, 168-196; Bravmann M.M. The original meaning of arable wazir.– DI. 1961, 37, 260-263, 1962, 38, 314; Bravmann M.M. Background, 220-227; Babinger F. Wazir, – EI, 4, 1229-1300.

² Ислом. Справочник. – Тошкент, 1989. – Б. 295.

Alband aytur:bo‘ldim kafil,
 Yor ishqida bo‘ldim sabil,
 Arz aylaram Shayx Jalil,
 Yo‘l bering, tog‘lar, yo‘l bering (2, 150).

2. Ustoz, pir. Xorazmda san‘at ahliga azaldan alohida ehtirom bilan qaralganini quyidagi parcha mazmuni va unda *shayx* so‘zining qo‘llanishidan ham bilsa bo‘ladi: Bizlarning yurtimizda *Shayx Otoyi* degan bir baxshi o‘tgan. Shuning sozidan, so‘zidan biladigan yerlaringiz bormi? – dedi podsho. Taqsir uni bilmaymiz lekin, o‘zimizning biladigan ishlarimizdan desasangiz, bir shingil aytib bersak bo‘lar, dedi. Amat baqqol mehmon egasi bo‘lganidan, mehmonlardan keyinda o‘tirgan edi, keyinidan kelib Mahmudjonning qulog‘iga shivirlab yubordi: Ammo Mahmudjon, podsho bir gapni aytgan vaqtida «bilmayman» deb uning gapining orqasiga qaytaruvchi bo‘lma. Agarda bir so‘zni aytib, keyiniga *Shayx Otoyi* deb qo‘ysang bas, Podsho *Shayx Otoyiga* mo‘vrini bosib qo‘ygani yo‘q, dedi. Bul so‘zga Mahmudjon iliqib: Taqsir, bir qo‘shiq qo‘ltig‘imda qolgan ekan, undan ham bir oz-moz bilarmiz, dedi. Nima bilsangiz shuni aytib bering, ko‘p zamondan beri shunga muhtoj yotganmiz, dedi, podsho. Mahmudjon: Nimalarni aytsam *Shayx Otoyiga* mangzar ekan, degan fikr bilan halqumini ko‘tarsa, yuqorida oq-oppoq, yupqa dudoq, bodomqovoq bir qiz bo‘ynini cho‘zib-cho‘zib, Mahmudjonning ko‘ziga qarab turgan edi. (4, 113).

Mufti – diniy va dunyoviy ishlarni fiqhiy jihatdan o‘rganuvchi, fatvo beruvchi:

San mango yor bo‘lsang birga ketali,
 Qozidin, *muftidin* nikoh olali,
 Har din qabul bo‘lsa shungo kirali,
 Yo san musulmon bo‘l, yo man armani. (2, 206).

f) ma‘muriy-hududiy bo‘linish bilan aloqador so‘zlar:

Shahr so‘zini Xorazm folklor asarlaridagi matn mazmunidan “shahar” yoki “mamlakat” mazmunida tushunish mumkin. Bu hol mazkur so‘z o‘zining

shakllanish jarayonidagi ilk semasini keyingi davrlarda ham muayyan darajada saqlab qolganidan darak beradi. Eronshunoslar fikricha, *shahr* soʻzi eroniy tillarning janubi-gʻarbiy guruhiga mansub *shathr* (shahar) soʻzi bilan oʻzakdoshdir. *Shahr* pahlaviyda *shahr* (mulk, viloyat), *shathr* (jahon, olam) qadimiy *xshahr* oʻzagidan hosil boʻlgan. “Avesto”da bu soʻz *xshathua* shaklida uchraydi. Oʻrta fors tilida *shahr*. Qadimgi hind tilidagi *kshatra* (shahar) soʻzi *xshi* – shohlik qilmoq, farmon bermoq, qudratli boʻlmoq oʻzagidan hosil boʻlgan¹. Demak, Xorazm folklor asarlarida *shahar* soʻzi mazmun taqazosiga koʻra tor maʼnoda “poytaxt” mazmunini ham anglatishi oʻzining tarixiy ildizlariga egadir. Anda momo aydi: Rum *shahri* ulugʻ *shahar* turur, har qayda boʻlsa soʻrab istab toparman deb bir necha vaqtlar yoʻl izlab yurib topdi. (2, 228). Anda Avazxon aydi: – Yusufshoh bir oʻgʻlon uchun bir Qalandarni oʻlturubdur, deb malomat qilurlar, deb gunosin tiladi. Podshoh oʻlturmadi. Qornigʻa qirq qamchi, orqasigʻa qirq qamchi urib aydi: – Bu *shaharda* tursang oʻltururman, deb siyosat qildi. (4, 291).

Dostonlar tilida *shahar* soʻzining majoziy maʼno qoʻllangan oʻrinlari ham uchraydi:

Dumoning tutibdur sari,
Sensan koʻnglimning shahari,
Turnadan keltirdim pari,
Sango qurbon yoʻllar, Avaz. (4, 249).

Dostonlarda qoʻllanilgan *viloyat* soʻzi ham ushbu mavzuiy-semantik guruhga mansub boʻlib, eski oʻzbek tilidagi asarlarlarda, shuningdek, fors xronikalarida uning “mamlakat” yoki “mamlakatning yirik maʼmuriy-hududiy boʻlagi” mazmunlaridan qay birini anglatayotganini faqat oʻzi ishtirok etayotgan matn mazmunigina belgilaydi: Uch kun yoʻl yuridi, oʻz *viloyatidin* chiqdi, yana etti kunda bir beshaga etdi, koʻrdikim, bir oqsoqol pir tahorat qilib oʻltirur. (2, 306); ammo roviylar andoq rivoyati moʻtabar qissai anbiyodin rivoyat qilurlarkim,

¹ Ўразбоев А. Огахийнинг “Риёз уд-давла” асарида ижтимоий-сиёсий лексика: Филол. фанлари номзоди ... дисс. – Тошкент, 2009. – Б. 75.

Diyorbakir degan bir *viloyat* bor erdi. Ul *shaharning* podshohini Shoh Abbosxon der erdilar. (2, 8).

1. 4. Diniy tushunchalarni anglatuvchi soʻzlar. Xorazm folklor asarlari mazmuni unda koʻplab diniy tushunchalarni ifodalovchi soʻzlarni qoʻllashni taqazo qilishi tabiiy. Shu bois ularni ham oʻzaro ichki guruhlariga ajratish imkoniyati bor.

Jumladan, iloh tushunchasini ifodalovchi soʻzlar: Xorazm folklor asarlari leksikasida Haq taoloning sifatleri boʻlgan atoqli otlardan tashqari iloh tushunchasini umumlashtirib ifodalovchi soʻzlar sifatida *xudo*, *xudovand* kabi oʻzlashmalar ishlatilgan: Ammo *xudoy taoloning* amri birla hazrat Shohimardon ikkisini tushigʻa kirib gunbazi xizrogʻa olib bordilar. (2, 10);

Abu Bakr, Umar, Usmon,
Ummatlargʻa boʻldi yoron,
Farohinda piri *yazdon*,
Ul Shohimardon qolmadi. (2, 74).
Bir oti egamning *Gʻaffor*,
Yana bir otidir *Qahhor*,
Barchaga oʻzingdir gʻamxor,
Ahli eshon xush qol endi. (2, 173).
Bir oting *Qodirdir*, bir oting *Rahmon*,
Oʻzing mango farzand ato aylagil,
Mani koʻnglimda hech qolmasin armon,
Oʻzing mango farzand ato aylagil.
Bir otingdur sani *Subhon*,
Tarahhum aylagil *Rahmon*,
Ki boʻlsin dardima darmon,
Biza farzand ato ayla. (2, 279-280).

Paygʻambar tushunchasini ifodalovchi soʻzlar. Shuni taʼkidlash kerakki, hozirgi oʻzbek adabiy tilida *nabi*, *nubuvvat*, *rasul*, *risolat* tushunchalari umumlashtirib, paygʻambar, paygʻambarlik soʻzlari bilan ifodalash odatiy boʻlib

qolgan. Lekin ulamolar bu ikki tushuncha o'rtasida daqiq farq borligini ko'rsatib o'tganlar. Ularni qisqa tarzda quyidagicha ko'rsatish mumkin: ilohiy xabarni boshqalarga yetkazish amr qilingan mumtoz odam nabi va rasul hisoblanadi, boshqalarga yetkazish amr qilinmasa, nabi hisoblanadi, rasul sanalmaydi; rasul umumiy bo'lib, farishtalardan ham, bashar ahlidan ham bo'lishi mumkin; rasul yangi shariat bilan keladi, nabi yangi shariat bilan kelmaydi¹. Shunga muvofiq Alloh taolo yuborgan diniy ta'limotlar to'plami risolat deyiladi. Rasul rasala – yubormoq fe'lidan olingan bo'lib, biror narsani lutf bilan yuborishni anglatadi. Shunga ko'ra, “risolat” so'zining eski o'zbek tilida “payg'ambar”; “maktub”; “elchilik” ma'nolari mavjud. Eski o'zbek tilidagi asarlarda bu so'z ikki ma'noda qo'llanilgan: 1. Yozishma, xususan, yuborilgan maktubot. 2. Elchilik. Shariatda risolat bilan yuborilgan payg'ambar mursal hisoblanadi. Shuning uchun ham Muhammad alayhissalomning sifatlaridan biri sayyidul-mursalindir. Nubuvvat lug'atda “naba” muhim xabar berish va “nubu” yuqorilash ma'nolarini bildiradi². Alisher Navoiy asarlarilarida ishlatilgan *nubuvvat xayli* birikmasini jami payg'ambarlar, barcha payg'ambarlar; *xayli rusulni* risolat bilan kelgan payg'ambarlar mazmunida tushunamiz:

Ey nubuvvat xaylig'a xotam bani Odam aro,
Gar alar xotam, sen ul otkim bo'lur xotam aro³.

Ko'rinadiki, Alisher Navoiy bu tushunchalar o'rtasida daqiq farqlarni nazarda tutgan holda qo'llagan. Shoir o'zining na't g'azallaridan birida ham aytadi:

Bediling xayli rusul, sensen alarg'a dilrabo,
Yo nabi, ruhiy fidoka, ahlan va sahlan marhabo...
Ey Navoiy, chorai dardingni qilg'ay ulki bor
Ham *rasulu* ham amin, ham mustafo, ham mujtabo⁴.

¹ قاموس المحيط www.dorar.net.

² قاموس المحيط www.dorar.net.

³ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Биринчи том. – Тошкент: Фан, 1987. Б. 33.

⁴ Алишер Навоий. Мукаммал асар тўплами. Иккинчи том. – Тошкент: Фан, 1987. Б. 11-12.

Dostonlarda ushbu tushuncha quyidagi soʻzlar bilan ifodalangan: Gʻarib aydi: eshitib erdim, xudo qargʻagan qulni *paygʻambar* alayhissalom asolari birlan urar deb, uch kundin beri Shohsanam hajrinda yigʻlar erdim. (2, 12);

Tangrining bir doʻsti Hazrati Muso,
Bir *rasuli* oning hazrati Iso,
Oshiqlar sarvari Yusuf, Zulayho,
Rahm etakoʻr holi zorima maning. (2, 296).

Bulbuligoʻyo deb koʻp chekdim jafo,
Qoʻldagʻaysiz mani *Rasul Mustafo*,
Tangrining arsloni Ali Murtazo,
Rahm etakgʻr holi zorima maning. (2, 296).

Soʻngra Shishu *Nabi* dunyoga keldi,
Behishtning bir hurin ango juft qildi,
Paygʻambarlik surib dunyoda boʻldi,
Qudratingni anga ayon aylading. (2, 208).

Farishta tushunchasini ifodalovchi soʻzlar:

Farishta: Oʻttiz ikki *farishta*, har birisi bir ishda deganday, bari parilar yelib-yugurib, dastgoh-dustgohlarini tayyorlab boshladilar. 1 // 231.

Xorazm folklor asarlarida *pari* soʻzi ham *farishta* maʼnosida ishlatilgan oʻrinlar bor. Aslida *pari* mifologik tushuncha, *farishta* diniy tushuncha ifodalaydi:

Haqdan engan besh narsaning,
Azal boshi bismillodur,
Toʻrt kitobning biri furqon,
Biri Jabroil *paridur*. 1 // 250.

Ushbu parchada Jabroil *farishta* nomi tilga olingan boʻlsa, “Oshiqnoma” turkum dostonlarida muqarrab *farishtalardan* Azroil *farishta* nomi zikr etilgan:

Azroil boshima kelib aziz jonim olur boʻlsa,

Aziz jonim yer ostig'a solg'uncha do'nmanam sandin. 2 // 93.

Shayton tushunchasini ifodalovchi so'zlar: Dostonlarda *shayton* tushunchasini anglatishda *shayton* so'zi keng qo'llanib, u bilan bog'liq "*shayton fe'liga kirmoq*", "*shaytonga dars bermoq*", "*shaytonga hay bermoq*" kabi iboralar va uning ko'chma ma'nosi sifatida shakllangan "ayyor" semali shakllari uchraydi:

Shayton:

Safar mahram ish biladur.

Shaytonlarga xesh bo'ladur,

Ishi endi besh bo'ladur,

Oy birla yulduzga yetding. 1 // 269.

Qadding bukulibdur misli yoy kabi,

Ko'ngling baland tutma Yazid shoh kabi,

Oxir nafasingda Basra shoh kabi,

Shayton imoningni olsa naylarsan? 1 // 406.

Bay-bay Avazxon ko'nglimni topib aytasan-da!, – dedi Go'ro'g'li, ammo ichidan aytdiki, ey zang'ar, *shaytonga dars beradigan* odam o'g'li, sening ko'nglingdagi ma'lumku, ammo ne qilayin, seni olib ketishim kerak, – deb qo'ydi. 1 // 96; Go'ro'g'lining jini qo'zg'alib-qo'zg'alib turdi, ammo *shaytonga hay berib* chidadi. 1 // 78 ; Bu o'zimdan boshqaga loyiq emas ekan, deb shu yerda Go'ro'g'li *shayton fe'liga ketdi*. 1 // 115; Safar ko'sa Go'ro'g'lining qirq yigitining ichida eng kattasi, *eng shaytonrog'i* edi. 1 // 41.

Aqidaviy tushunchalar: Aqida so'zi arabcha aqada felidan olingan bo'lib, bir narsani ikkinchisiga mahkam bog'lash ma'nosini anglatadi¹. Bu so'zning o'zi Xorazm folklor asarlarida faqat "ishonch", "fikr", "ishonish" mazmunlarida ishlatilgan: Bildiki, elga ul aqida bo'lg'usidurki,.. (180). Xorazm folklor asarlarida aqoid ilmiga bog'liq ko'plab so'zlarning ishlatilishi tabiiy holdir. Jumladan, iymon²: xirqang

¹ قاموس المحيط www.dorar.net.

² Madelung W. Early sunni doctrine of faith as reflected in the Kitab al-Iman of Abu 'Ubayd al-Qasim b. Sullam (d. 224/839).– StI. 1970, 32, 233-254; Smith W.C. Faith as Tasdiq. Theology, 9-119; Garda L. Īman. – El, NE, 3, 1199-1202.

ostidag'i zunnoringni kesib, iymon keturgoysen. (254). Xorazm folklor asarlarida bu so'z istilohiy ma'nosidan tashqari urfiy (ishonch, ixlos) manolarida ham ishlatilgan: bu toifaga iymoni bor... (131). Islom □: Islom qoidasi adosida bu ikki bayt Pahlavonningdur. (301). Islom, vuzu' (tahorat), mashru' (shar'iy): Islom diyorida ulamo orasida madrasa eshikida vuzu' qiladur va mashru' tartibi bila emas. (391). Munofiq, masjid: andoq bo'lg'oyki, munofiq masjidda va go'dak maktabda va asir zindonda (327). Musulmon, vaqf, mushaf: derlar, iligin Tengri yo'lida musulmonlarg'a vaqf qilg'on ermishki, har kishi har ne buyursa, xoh mushaf va g'ayrihi bitigay. (347). Majusiy – otashparast: Ul debdurki, Abuladyon bila bir majusiy orasida bir kun so'z o'tar erdi. (154). Tarso – g'ayridin: Misr Voliysi Suls kentiga bir tarso omil yibordi va ul qattiq zulmlar qildi. (195). Sunnat□: Ul mundoq ta'bir qildikim, sen Rasul sallollohu alayhi vassalamning ilmi va sunnati hifzida biyik darajaga etkaysan. (30).

Ibodatlar nomi va unga aloqador so'zlar: Masjid, namoz: masjidqa kirdum va namoz qildum. (256) Namoz ma'nosida uning arabcha shakli salot ham keng ishlatilgan: janoza saloti uni kelur (431). Va yana biri saloti xamsadurki, ul nav'ki bu toifa ado qilibdurlar, aql qoshida mahol ko'runur (18). Savm – ro'za. Unga sinonim tarzda forscha roza so'zi ham ishlatilgan. Tasavvuf ahli nazdida ro'za tushunchasi nisbatan kengroq, xos ma'no anglatishini quyidagi parcha mazmunidan ham anglash mumkin: emak-ichmakdin bo'g'uzg'a savm buyurg'aylar... o'z qilur fe'llaridin ro'za buyurg'aylar. Ko'zga nomashru' nimaga boqardin va quloqqa nomashru' un eshiturdin va oyoqqa nomashru' qadam urmog'din, ilikka nomashru' nima tegmakdin va alo hozo jami'i a'zog'a bu dastur bila. Va bovujudi bu su'ubatlar barchadin sa'broq ko'ngul ro'zasidurki, Haq subhonahu taolodin o'zga hech nima xotirg'a kechmakdur va bu ro'zani doimiy ko'ngulga buyururlar (18). Soyim – ro'zador: Chun soyim erdi va shom yaqin erdi. (195). Zakot – islom dinining besh ruknidan biri. Zakot moliyaviy ibodat hisoblangani uchun olimlar tomonidan “Qur'on” mavzulari nuqtai nazaridan ham ibodat, ham iqtisodiy masalalar bobida keltirilgan□. Zakot berish darajasida mol-mulkka ega bo'lgan musulmonlar sohibi nisob hisoblanadi: Yana biri zakotdur. Bu

toifa dunyo tarkini ixtiyor qilibdurlar. Alardin yuzdin biri sohibi nisob bo'lmaslarkim, alarg'a zakot farz bo'lg'ay (18). Haj – islom dinining besh ruknidan biri: Islomning bu mazkur bo'lg'on to'rt rukni takmil topqandin so'ngra hajdurki, soyir xaloyiqqa sharti istitoat va amni tariqdur (17).

Xorazm folklor asarlari tilidagi o'zlashmalar tahlili bir jihatdan o'zlashmalar tabiati, ularning tilimizda tutgan o'rni kabi nazariy masalalar yechimiga yordam bersa, ikkinchi tomondan turli tillar yaqin va farqli jihatlarini solishtirishda muhim ahamiyatga ega.

Masalan, hozirgi o'zbek adabiy tilida ham faol dushman so'zi xalq dostonlarida turli ma'no qirralari bilan namoyon bo'ladi:

Raqib –

Qaydagi kamoldur qaydagi visol,

Yig'lab o'tsa kerak necha mohi sol,

Kel qocholi, meni durust yo'la sol,

Dushman biza yuzin chitdi, ?aribjon...

Qarshi, muxolif –

... Barcha mahluq bizga dushman dildorim,

Raqiblardin hazar etsang na bo'ldi¹.

Yov, dushman – «Ey, Shohsanam, bu chorbog'ni otangdin tilab olib o'zunga xos maishatxona qilmasang raqiblar bu asrordin voqif bo'lub, rasvo bo'lursan. Na uchunkim, odamzodning do'stidin dushmani ko'proqdur», – dedi.

Dushman so'zi tarixiga nazar solsak, pahlaviy tilida *dush_man*, “Avesto”da *dush manah* shaklida ishlatilganini ko'ramiz². Uning birinchi qismi *duj* (“j” sirg'aluvchi) bo'lib, “yomon”, “yovuz” ma'nosini anglatgan. Bu so'z fors tilining keyingi taraqqiyotida ayrim so'zlar tarkibida asl shaklini saqlab qolgan bo'lsa (*dujkom* – g'amgin, *dujxim* – yomon qiliqli, badaxloq), ayrim so'zlar tarkibida *z* (*do'zax* kabi) yoki *sh* (*dushman*, *dushvor*)ga o'tgan. *J* sirg'aluvchisining *zga*

¹ Misollar Xorazm dostonlari noshiri professor S.Ro'zimboev taqdim qilgan elektron variant asosida berildi. Ushbu taqdim uchun Ustozga minnatdorchilik bildiramiz.

² Шамсуддин бин Халаф табризий. Бурхони қотей. – Техрон: Амири кабир, 1375 х.ш. – С. 866.

aylanishi yoki aksincha holatdagi fonetik hodisa fors tilida kuzatiladi. Yuqoridagi misolda *j* zga almashgan bo'lsa, pahlaviy tilida *Azidahak* shaklida bo'lgan so'z yangi fors tilida *ajdaho* ko'rinishini olgan. "Dushman" so'zining ikkinchi qismi *man* esa pahlaviy tilida "xulq", "odat", "tabiat", "fitrat" ma'nolaridagi *man(i)shn* so'ziga aloqador bo'lib, mazkur so'z hozirgi fors tilida *manesh* shaklida ishlatiladi¹. Bu so'zning o'zi qadimiy *man* – "o'ylamoq" fe'liga borib taqaladi². Demak, ikkala so'zning umumiy mazmuni aynan "yomon o'yli", "yomon fikrli" (odam yoki biror aniq, mavhum narsa) deganidir. Bundan tashqari fors klassik adiblari tilida *man* so'zi "ko'ngil", "qalb", "dil" ma'nolarida ham ishlatilganki, bu mazmun hozirgi fors tilida mavjud emas³. Ko'rinadiki, bu mazmun "man"ning yuqorida qayd etilgan ma'nosidan polisemiya natijasida hosil bo'lgan. *Man* so'zi "ko'ngil", "qalb", "dil" ma'nolarida ishlatilganini Abulqosim Firdavsiyning "Shohnoma"sida ham uchratamiz:

Sarash sabz bod-u tanash arjumand,
Manash bar guzashta zi charxi baland⁴,

ya'ni "boshi navqironu tani aziz bo'lsin, ko'ngli (manash) baland falakdan ham o'tsin (o'ksimasin)".

Do'st-dushman masalasi hamisha muhim ijtimoiy va siyosiy ahamiyat kasb etgan. Shuning uchun ham Shayx Sa'diyning "Guliston"idagi quyidagi baytlari aforizmga aylangan bo'lib, "dushman" so'zi tarkibidagi ikkinchi qism *man* (ko'ngil, qalb) ekaniga ishora bor:

Az xudo don xilofi dushman-u do'st-
 Ki, dili har du dar tasarrufi ust⁵.

Tarjimasi: "do'stu dushman xilofligini xudodan deb bil, chunki har ikkalasining ham qalbi Uning tasarrufidadir".

¹ Персидско-русский словарь. Том I. – М.: Русский язык, 1983. – С. 566.

² Шамсуддин бин Халаф Табризий. Бурхони қотъ. – Техрон: Амири кабир, 1375 х.ш. Жилди 4. – С. 2342.

³ Шамсуддин бин Халаф Табризий. Бурхони қотъ. – Техрон: Амири кабир, 1375 х.ш. Жилди 4. – С. 2036.

⁴ بزرگترین کتابخانه شعر فارسی. درج ۳. Al-rams. www.mehrahgam.com.

⁵ بزرگترین کتابخانه شعر فارسی. درج ۳. Al-rams. www.mehrahgam.com.

“Man” so‘zining “fīkr”, “o‘y”, “andisha” mazmunlarini o‘zbek tilidagi o‘zlashmalardan biri *gumon* so‘zi tarkibida ham ko‘ramiz. Bu so‘z shu mazmunda “Avesto”da *vimanah*, qadimgi fors tilida *vimana* shaklida¹ bo‘lib, birinchi qismi, M.Kazzoziy fikricha, keyingi taraqqiyot natijasida “b” yoki “g”ga aylangan “ajratish” ma’nosidagi *vi*, *wi* old qo‘shimchasidir. Olim ushbu ma’noni pahlaviy tilidagi “bir-biridan ajratish uchun savalash” ma’nosidagi *witaxtan* (*toxtan* – “savalamoq”), “termoq” (bir narsani biror narsadan ajratgan holda) ma’nosidagi *wixtan* fe’llari bilan qiyoslagan holda asoslaydi va *gumon* yaxshi yomonligi ajralmagan fikrligi bois shunday nomlangan, degan xulosaga keladi². Haqiqatan ham, o‘tmishda donishmandlar inson o‘y-fikrini uch qismga ajratganlar: fikr, tafakkur (mutafakkara), xayol (mutaxayyala), *gumon* (mutavahhama). “Gumon” so‘zida bir qadar salbiy mazmun borligi (“gumon iymondan ayirar” maqolidagi kabi) ham shu bilan izohlanadi. Shuning uchun arab tilida “gumon” mazmunida *zann* so‘zi ishlatiladi³. Ushbu so‘z turk tilida *zan* tarzida o‘y; *gumon* mazmunlarida ishlatiladi⁴. Buni dostonlar tilidagi quyidagi parcha ham asoslaydi:

Sen ketarsan kunda yuz ming gumona,
Meni quvmoq uchun topmay bahona,
Ketar bo‘ldim emdi Shemox-Shirvona,
Qolur bo‘lsang G‘arib bila qol, Sanam!

“Gumon” so‘zining etimologik tavsifi asnosida qadimgi fors va pahlaviy tillaridagi “v” tovushi “g”ga o‘tgan hollar bo‘lganini kuzatdik. Ushbu fonetik hodisani *g?nah* so‘zi talqinida ham ko‘rishimiz mumkin. Ushbu so‘z pahlaviy tilida “gunoh”; “buzg‘unlik” ma’nolarida *vinas* shaklida ishlatilgan. Qadimgi forsiyda *vinasa* xuddi shu mazmunda bo‘lib, sanskrit tilida *vinasa* inqiroz, zavol ma’nosini beradi⁵. Qadimgi fors va sanskrit tillaridagi ikkala ma’no o‘rtasida

¹ Шамсуддин бин Халаф Табризий. Бурхони қотеъ. – Техрон: Амири кабир, 1375 х.ш. Жилди 3. – С. 1834.

² Мир Жалолиддин Каззозий. Номаи бостон. Жилди 1. – Техрон: САМТ. 1379 х.ш. – С. 258. – С. 172-173.

³ Носиров О., Юсупов М. Ан-наъим. Арабча-ўзбекча луғат. –Тошкент: Тошкент Ислом университети нашриёти, 2003. – Б.

⁴ Юсуф Б. Туркча-ўзбекча ва ўзбекча-туркча луғат. – Тошкент: Ўзбекистон, 1993. – Б. 182.

⁵ Шамсуддин бин Халаф Табризий. Бурхони қотеъ. – Техрон: Амири кабир, 1375 х.ш. Жилди 3. – С. 1836.

mantiqiy aloqadorlik borligini aniqlash qiyin emas. Fors tilining tarixiy taraqqiyotida g – s fonetik hodisasi ko‘p uchraydigan tovush o‘zgarishlaridan sanaladi. Bundan tashqari, “gunoh” so‘zi jonli eroniy tillardan baluj tilida *gunas* shaklida ishlatilishi shubhaga o‘rin qoldirmaydi. Shu o‘rinda rus tilidagi ayb ma’nosidagi “вина” so‘zi pahlaviydagi *vinas*, qadimgi fors va sanskrit tillaridagi *vinasa* bilan umumiy manbaga egaligi ravshanlashadi.

Qismatim ne bo‘ldi, nadur gunohim,
Hamisha boshimdin ketmaydur g‘amim,
Barchaning ko‘ziga yomon ko‘rindim,
Na qavm-qarindosh, na yurt-elim bor.

Dush tarkibli o‘zlashmalardan yana biri hozirgi o‘zbek adabiy tilimizda dashnom shaklini olgan *dushnom* (hozirgi fors adabiy tilida do‘shnom)dir. Bu so‘zning ikkinchi qismi “nom” pahlaviy va o‘rta fors tili davrida shunday shaklni olgan bo‘lib, avestoviyda nama shaklida ishlatilgan. Ushbu so‘z shu ma’nodagi ingliz tilidagi *name*, frantsuzcha *nom*, nemischa *Name*, ispancha *nombre* so‘zlari bilan umumiy o‘zakka egaligi tadqiqotchilar tomonidan ko‘p bor ta’kidlangan. Demak, har ikkala tarkib birgalikcha aynan “yomon nom”, “yomon ot” ma’nolarini anglatadi. Hozirgi fors tilida bu so‘zning semalari “so‘kich”; “tanbih” ma’nolari bilan cheklansa ham, fors adabiyoti klassiklari tilida uning “yomon ot” ma’nosi va shu asosida do‘shnom *dodan* – “so‘kmoq” fe’lining “yomonotliq qilmoq”; “ta’na qilmoq” mazmuni mavjud. Masalan, “in mard malikro dushnom dod” (Shayx Sa’diy “Guliston”dan)¹ – “bu kishi podshohni yomonotliq qildi”. Yoki “Agar dushnom farmoi va gar nafrin duo go‘yam” – “agar ta’na qilsang ham, nafrat izhor qilsang, duoyi xayr qilaman”. (Hofiz Sheroziy). “Qiyin”, “og‘ir” ma’nolaridagi *dushvor* o‘zlashmasining birinchi tarkibiy qismi ham tarixan mazkur “dush”dir. Tadqiqotchilar fikricha, ushbu so‘z shu ma’nodagi *dushxor* so‘zining fonetik variantidir. *Xor* (bu so‘zdagi ikkinchi harf – vov yozilsa ham o‘qilmaydi) omonim so‘zlardan hisoblanib, uning qadimiy ma’nolaridan biri “oson”dir. Bu ma’noda xor

¹ بزرگترین کتابخانه شعر فارسی. Al-rams. درج ۳. www.mehrahgam.com.

so‘zi avestoviy “tinchlik”, “osoyish” mazmunidagi *xvathraga* aloqadordir. Qadimgi fors tilidagi *xv* tovush birikmasi eroniy tillarning keyingi taraqqiyotida *x* yoki *v* tarzida o‘tgan. Jumladan, ushbu *xvar* so‘zi kurd tilida *xar*, baluj tilida *var* ko‘rinishiga ega¹. Shu tarzda *dush* va *vor* birikuvi “bajarish qiyin kechadigan, oson bo‘lmagan” ma’nolarini anglatadi.

O‘zbek tiliga o‘zlashgan arabcha va forsha so‘zlarning ko‘pchiligini mavhum tushunchalarni ifodalovchi so‘zlar tashkil qiladi. Bu holni Xorazm folklor asarlari leksik tarkibida ham ko‘rishimiz mumkin. Ularning ayrimlari bir-biri bilan sinonim bo‘lib, ko‘p hollarda juft so‘zga aylangan. Masalan, tilimizda har ikkala qismi ham tarixan arab tiliga mansub *ishq-muhabbat* juft so‘zi keng ishlatiladi. Masalan, “To‘ir va Zuhra” dostonidan: “Shunda birdan xudoning qudrati bilan, Rasulning shifoati bilan, Tohirning oh-u hasrati, Zuhraning nolishi, ikki oshiqning *ishq-muhabbatidan* bir ovoz chiqdi, go‘yo qiyomat qoyim bo‘ldi – tog‘ pora-pora bo‘lib, ikki yoqqa ayrilib yo‘l ochildi”. 6 // 85.

Bu so‘zlarning tarixiy-etimologik tahliliga nazar solish bir-biriga ma’nodosh mazkur so‘zlarning juft holatga kelishi ularning qay darajada semantik o‘zgarishga uchraganini izohlashda qo‘l keladi. Ushbu juft so‘zning birinchi tarkibiy qismi *ishq* a’shiq – “sevmok”, “oshiq bo‘lmoq” fe’lining masdari (infinitivi) shakli sifatida shakllangan². Tarixan esa *ishq* so‘zining o‘zi mazkur ma’noga polisemiya natijasida o‘tgan bo‘lib, o‘simliklarga chirmashib uni quritadigan giyoh nomi denotant vazifasini bajargan. Bu haqda mashhur leksikograf Muhammad Rampuriyning “G‘iyosu-l-lug‘ot” asarida quyidagilarni o‘qiymiz: “Ishq biror narsani haddan ziyo sevmok. Tabiblar istilohida biror go‘zal narsani ko‘rib qolish natijasida paydo bo‘ladigan kasallik. Abdurazzoq Shorih Zuhuriy “Sharhi asbob” va “Futuhoti hikam”dan naql qilishicha, *ishq* loviyaga o‘xshab o‘sadigan, (lekin) daraxtlarga chirmashib, uni quritadigan bir o‘simlik nomidir”³. Endi uni muhabbat

¹ Шамсуддин бин Халаф Табризий. Бурхони қотеъ. – Техрон: Амири кабир, 1375 х.ш. Жилди 2. – С. 780.

² Носиров О., Юсупов М. Ан-наъим. Арабча-ўзбекча луғат. – Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2003. – Б. 541.

³ Гиёсиддин Рампурий. Гиёсу-л-луғот. – Лакхнау: 1886. – С. 324.

soʻzining tarixiy-etimologik tahlili bilan solishtirsak, fikrimiz biroz oydinlashadi. Muhabbat *habba* – “sevmok”, “yaxshi koʻrmok”, “qattiq muhabbat bogʻlamak”, “arzanda qilmoq” feʻli asosida shakllangan. Uning “tilamoq”, “orzu qilmoq”, “xohlamoq” maʼnolari esa dastlabki maʼnoga mantiqiy bogʻliqlik natijasida hosil boʻlgan. Demak, tahlillar bir tushunchaning turli qirralarini ifodalovchi ushbu soʻzlardan *ishq*da maʼno ustunligi mavjudligini, yaʼni *ishq* soʻzida sevgi mazmuni kuchliligini koʻrsatadi. Bu holni ushbu soʻzlarning oʻzakdoshi boʻlgan, aniqrogʻi, shaxs oti hosil qiluvchi shakllari *oshiq* va *muhib* soʻzlari orqali ham koʻrishimiz mumkin. Deylik, biror shaxsga yoki narsaga koʻngil bogʻlagan inson muhib boʻlishi mumkin, lekin bu muhabbat komil boʻlmaguncha, inson ushbu sevgi orqali kamolot kasb etmaguncha oshiq darajasiga koʻtarila olmaydi. Shuning uchun ham, Ahmad Yassaviy “Har ne qilsang oshiq qilgʻil, Parvardigor!” – deydi. Alisher Navoiyning “Boʻlmasa *ishq* ikki jahon boʻlmasun” misralaridan ham ayni shu fikrni tasdiqlaydigan jihatlarni topamiz. Bizningcha, muhabbat (muhiblik) *ishq* maqomiga boʻlgan dastlabki odimdir. Nodiraning “Muhabbatsiz kishi odam emasdur, Gar odamsen, muhabbat ixtiyor et” – baytini ayni shu nuqtai nazardan tahlil qilish mumkin. Xalq dostonlarida, haqiqatan ham, bizning yuqoridagi fikrlarimizni quvvatlovchi dalillar koʻplab koʻzga tashlanadi. Masalan,

Koʻshkida yor deyib zor-zor yigʻlagan,
Ishq oʻtiga jigar-bagʻrin dogʻlagan,
 Shu sababli falak baxtin bogʻlagan,
 Koʻzim tushdi yorim turgan yerlarga. 6 //85.
 Bek oʻgʻli soʻzlar hamisha,
 Qilmagʻil, qaygʻu-andisha,
Ishq oʻtiga kuya-pisha,
 Zuhrajon bogʻdadur bogʻda. 6 //30.

Ayni shu tarzda oylar, kunlar oʻtib, bular voyaga etdilar. Vaqti kelib Zuhrajon va Tohirjonning oʻrtasida *ishq-muhabbat* asari paydo boʻldi. Ular bir-

birini ko‘rganda *ishq* o‘ti bularning yuragidan kechar erdi. Agarda soat bir-birini ko‘rmasalar, bir-birining *ishqida* dali-devona bo‘lar erdilar. 5 // 6.

Ta’kidlash lozimki, *ishq* va *muhabbat* semalarining kuchlilik darajasi xususida yuqorida aytilgan fikrlar, bizningcha, yozma manbalarga tegishlidir. Chunki so‘zlashuvda *ishq* so‘zidagi sevgi semasi bir qadar kuchsiz ifoda etilgan birikmalar ham mavjud. Misol uchun biror narsani yoki shaxsni shunchaki yoqtirib qolish ma’nosida *ishqi tushdi* iborasi ishlatiladi.

E’tiborlisi shuki, xalq` dostonlarida ishqning tasavvufiy istiloh sifatidagi ma’nolari ham ko‘zga tashlanadi: “Ikkalasini namozini o‘tab, bir marhadda qo‘ydilar. *Ishqi majoziyda* oncha jabr-u jafolar tortdilar. Xudoyi taolo muhabbatlarini haqiqatg‘a mubaddil qilib, murod-u maqsadlarig‘a yetdilar va har bandai mo‘min poklig‘ bila e’tiqodini rost qilib maqsadig‘a qadam qo‘ysa, haq subhono va taolo nechuk mahrum qo‘yg‘ay va har kim diyonat birla ko‘nglini xolis qilib, *ishqi majoziyda* o‘rtansa va muhabbat yo‘lida paymol bo‘lsa, ishqi haqiqiyg‘a musharraf bo‘lsa ne ajab durur”. 6 // 180.

Ushbu tahlillardan ma’nodosh so‘zlardan tashkil topgan juft so‘zlarda tarkiblar anglatgan tushunchani nisbatan kuchli ifodalovchi qismi birinchi o‘rinda keladi, degan xulosa chiqarish mumkinday tuyulsa ham, uni boshqa shunday so‘zlar bilan qiyoslash yuqorida bayon qilingan tarzda xulosa yasashimizga monelik qiladi. Jumladan, o‘zbekcha+arabcha *sevgi-muhabbat* juft so‘zida sevgi tushunchasi birinchi komponentdan ko‘ra ikkinchi komponentda kuchliroq ifodalangani ko‘rinib turibdi. Yoki almashtirib qo‘llash ham mumkin bo‘lgan ma’nodosh komponentlardan tarkib topgan juft so‘zlar ham mavjudligini e’tiborga olaylik. Masalan, *do‘st-yor – yor-do‘st*. Bu mulohazalar juft so‘z komponentlarida tartib masalasiga oid “komponentlar tartibi ma’lum bir qoidaga asoslanilmaydi, ularning tartibi har bir juft so‘z qismlarining o‘ziga xos fonetik, leksik-semantik xususiyatlari bilan alohida izohlanadi” – degan xulosani mustahkamlaydi. Demakki, *ishq-muhabbat* juft so‘zida *ishq* komponentining birinchi o‘rinda kelishi kam bo‘g‘inli so‘zning oldin joylashishi bilan izohlanadi.

Ushbu mulohazalarimizni asoslovchi dalillarni *do‘st-yor* va *yor-do‘st* juft so‘zlarining tahlili orqali ham topamiz. *Do‘st* so‘zining lug‘atlarda quyidagi ma’nolarda ishlatilgani qayd etiladi: 1. Yor, o‘rtoq. 2. Oshiq. 3. Tarkibli so‘zlarda “yoqtiruvchi”, “sevuvchi” ma’nolarida. Masalan, *bashardo‘st* (gumanist, insonparvar), *dunyodo‘st*. O‘zbek mumtoz adiblari tilida qayd etilgan ma’nolarning barchasi ishlatilgani kuzatiladi.

Yor so‘zi pahlaviy tilida *ayarih*, *ayar* shakllarida qo‘llanilgani, 1) sevikli, ma’shuq; 2) do‘st; 3) o‘rtoq; 4) hamroh ma’nolarini berishi izohlanadi¹.

Do‘st so‘ziga tut quloq, ag‘yorni pandin tutmagil,
Shum raqib fitnalarini uyqudan uyg‘otmagil,
O‘zgalarga til berib, holim parishon etmagil,
Ming tumanlik e’tiborim bir diramga sotmagil,
Yuz alam jonima jabri sitamkorim, uyg‘on! 6 // 91.
G‘ofil bo‘lsang shum raqiblar tuyarlar,
Borib shoh bobomga siring yoyarlar,
Seni o‘ldiralar, meni qo‘yarlar,
Do‘stdan ko‘p dushmanli joydir bu joylar. 6 // 95.
Nozanin yigitlar, teng-u tushlarim,
Yigitlar hamrosi parivashlarim,
Qadrdon *do‘stlarim*, qardosh-xeshlarim,
Yig‘lamag‘il, xaloyiqlar, qol endi. 6 // 108.

Forscha *yor* o‘zbekcha *yor* (fe‘l negizi) bilan omonimlik kasb etsa ham, forsiy *yor* so‘zining unlisi nisbatan kengligi bilan farqlanadi. Buni ayniqsa, eski o‘zbek tilidagi nazmiy asarlar misolida yaqqol ko‘rish mumkin.

Ushbu so‘zlar qo‘llanilgan eski o‘zbek tilidagi va hozirgi adabiy tilimizdagi matnlarga bir bor nazar tashlash ushbu ma’nodosh so‘zlardan “do‘st”da “yor”ga nisbatan anglashilayotgan tushuncha umumiy va keng qamrovli aks etganini ko‘ramiz. Shuning uchun ham, do‘st so‘zida inson uchun sevimli shaxs yoki

¹ Муъин М. Фарҳанги форсий. 4-том. – Техрон: Амири Кабир, 1996. – С. 5241.

boshqa moddiy-ma'naviy tushunchalar to'laroq aks etadi. Tilimizda ushbu o'zlashma asosida aynan "yor tutmoq" emas "do'st tutmoq" (masalan, biror shaxsni, moddiy yoki ma'naviy biror narsani – dunyoni, kitobni, Yaratganni kabi) fe'lining shakllanishi ham bejiz emas. Bundan tashqari *do'st* so'zida yorga nisbatan biror insonga yaqinlik semasi kuchliroq aks etadi. Deylik, bu so'zda shaxslar o'rtasidagi zavol topmas va aks holatga o'tmas darajadagi yaqinlik nazarda tutiladi. Mumtoz adiblarimiz ijodidagi muhim intim, ijtimoiy-siyosiy mulohazalar do'stga murojaat orqali aks etgani ham bejiz emas. Masalan, Alisher Navoiyning o'ta intim, behad hissiy fikrlari "Qilmangiz bekasligimni ta'n bir kun bor edi, Menda ham bir nozanin chobuksuvor, ey do'stlar!" tarzida ifoda topgani bu mulohazalarimizni quvvatlaydi. Ushbu holat ikki ma'nodosh so'z o'rtasidagi xususiylik bo'lsa, ularning o'rtasida umumiy jihatlar ham ko'p. Jumladan, har ikkala so'z ham insonga yaqin biror inson degan ma'noni ifodalaydi. Endi ushbu holatni boshqa jonzotlarga nisbatan qo'llashda ma'nodoshlar o'rtasida tafovut yuzaga keladi, ya'ni "it – insonning do'sti" yoki "Boychibor – Alpomishning do'sti" kabi ifodalarda do'st va yor so'zlarini bir-biriga almashtirish imkoni yo'qligi yuqorida aytib o'tganimizdek, do'stda yorga nisbatan umumiylik mavjudligi, ayni paytda semani kuchli ifodalay olish qobiliyati mavjudligi yaqqol ko'rinadi. Yor so'zining do'stga nisbatan semasi "kuchsizlanishi"ga sabablardan biri uning "hamroh", "yo'ldosh" ma'nolarini ham kasb etganidir. Chunki har qanday hamroh ham do'st bo'la olmasligi tayin.

Tohirni *do'st-yorlari* kuzatib borar erdilar. 6 //70.

Ketarman Totor elina,

Beklar, xonlar xush qol endi,

Bosh qo'ymisham yor yo'lina,

Do'st-yoronlar, xush qol endi. 6 //74-75.

Meni qo'yib, raqiblarga yor o'lding,

Oshiqlar qoniga sababkor o'lding,

Bugun yovuz darda giriftor o'lding,

Qotil bo'lg'il falak solgan ishiga. 6 //125.

Bobda bayon qilingan materiallar asosida Xorazm folklor asarlari leksikasidagi o'zlashma so'zlar mavzuiy-semantik xususiyatlari borasida quyidagicha umumiy xulosalarni bayon qilish mumkin:

- Xorazm folklor asarlari leksikasi mavzuiy-semantik guruhlar diapazoni ancha keng bo'lib, bu uning mavzu ko'lami, unda bayon qilingan voqealarning xilma-xilligi, geografik va tarixiy hududning kattaligi, xalq turmush tarzining turli jabhalari bilan bog'liq hodisalar tilga olingani kabi ko'plab omillarga borib taqaladi;
- Xorazm folklor asarlari mavzusiga bog'liq ravishda, tabiiyki, unda maishiy hayotga oid va mavhum tushunchalarni anglatuvchi so'zlar salmog'i katta;
- Xorazm folklor asarlari qo'llanilgan turli mavzuiy-semantik guruhlariga mansub so'zlarning katta qismi hozirgi o'zbek adabiy tilida ham faol ishlatiladi. Bu, xususan, fitonimlar, zoonimlar va olmosh so'z turkumlariga mansub so'zlar doirasida ko'p kuzatiladi;
- diniy va tasavvufiy tushunchalarni anglatuvchi so'zlarning ayrimlarida hozirgi o'zbek adabiy tilida ma'no umumlashishi yuz berganining ildizlari folklor asarlari bilan bog'lanadi;
- Xorazm folklor asarlari lug'at fondidagi so'zlarni mavzuiy-semantik tadqiqi uning leksikasini tizimli, izchil tadqiq qilishda muhim o'rin tutadi.

II BOB. XORAZM FOLKLOR ASARLARIDAGI O‘ZLASHMA SO‘ZLARNING TARIXIY-ETIMOLOGIK TAHLILI

2. 1. Xorazm folklor asarlaridagi eroniy qatlamga mansub o‘zlashma so‘zlar. O‘zbek adabiy tili va shevalarida eroniy tillarga mansub so‘zlar salmoqli o‘rin tutadi. Eroniy tillar va turkiy tillar genetikasi turlicha bo‘lsa ham, hayotiy zarurat, madaniy-adabiy va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning chuqurlashuvi turkiy tillar, jumladan, o‘zbek tilida eroniy o‘zlashmalar miqdorini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi¹.

Bundan tashqari, Xorazm folklor asarlari leksofondida substrat qatlamga oid so‘zlar ham ko‘zga tashlanadi. Z.Do‘simov ta’kidlaganidek, “Xorazm shevalarining leksikasi hozircha bizga aniq bo‘lmagan leksik qatlamga egadirki, bunday so‘zlar qadimgi xorazmliklar tilidan kirib qolgan deb taxmin qilinadi”². Bu masalaga o‘z vaqtida F.Abdullaev, A.Ishaev, O.Madrahimov kabi olimlar ham e’tibor qaratgan edilar³.

Xorazm folklor asarlarilarida ham eroniy lug‘aviy qatlamga mansub bo‘lgan *sar* komponentli o‘zlashma so‘zlar doirasidagi bir necha so‘z uchraydi. O‘zbek tilida polisemiya masalasini tadqiq qilgan T.Aliqulov *bosh* so‘zining turli ma’no qirralarini tahlil qiladi⁴. Bu masala B.Jo‘raev tomonidan ham atroflicha o‘rganilgan bo‘lib, unda “bosh” so‘zining 19 xil ma’nosi tahlil etilgan. O‘zbekcha bosh so‘zidagi ko‘plab ko‘chma ma’nolar forscha *sar* so‘zida ham ko‘rinadi. B.Bafoev Alisher Navoiy tilida qo‘llangan *sar* komponentli so‘zlarni maxsus tadqiq qilgan⁵.

¹ Усмонов С. Ўзбек тилининг луғат составида тожикча-форсча ва арабча сўзлар // Навоийга армуғон. – Тошкент: Фан, 1968. – Б.109; Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. Тошкент, 1985. – Б.103-115.

² Дўсимов З. Хоразм топонимлари. – Тошкент: Фан, 1985. – Б.11.

³ Абдуллаев Ф.А. Хоразм шевалари. –Б.236; Ишаев А. Из лексики узбекских говоров Каракалпаки // Вопросы тюркологии. – Ташкент: 1965. –С.112-113; Мадрахимов А. Исследование по лексике огузского наречия узбекского языка: Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. – Ташкент, 1978. – С.18-19.

⁴ Аликулов Т. Полисемия существительных в узбекском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1966.

⁵ Бафоев Б. Алишер Навоий асарларида сар компонентли сўзлар // Адабий мерос. 1-сон. 1968.

Bugungi o‘zbek adabiy tilida *sar* komponentli so‘zlar anchani tashkil qiladi. Jumladan, *sardor* so‘zi *sar* va *-dor* qismlaridan iborat. *Dor* qadimgi fors tiliga taalluqli so‘z hisoblanib, hozirda *doshtan* – ega bo‘lmoq fe‘lining hozirgi zamon negizidir. *Sardor* – xon qo‘shinining qo‘mondoni, xalq lashkarboshisi¹:

Xunxorshoh dunikdan tushgan dunakday bo‘lib, o‘ylamagan bir vaqtda dushman elining sardori bo‘lgan Jig‘olibekning oldiga kirib kelishiga hayron bo‘ldi. 1 // 7.

Sarboz – navkar, soldat.

Boz I. Burgut. Bu ma’noda avestoviy *vaz* – uchmoq bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Bu ma’no o‘zbek tilidagi *parvoz* (*vazidan* – esmoq (shamol haqida) fe‘lining buyruq shakli *vaz*)da saqlangan. Shikor burgutlari *shahboz* (*shoh* // *boz*) deb nomlanadi va bu hozirda o‘zbekchada *shavvoz* (*shovvoz*) shaklida ko‘chma ma’no kasb etgan.

Boz II. Quloch.

Boz III. Qo‘lning bir qismi (kichik barmoq uchidan bilakkacha).

Boz IV. Yana. (Boz ustiga).

Boz V. Boxtan o‘ynamoq; yutqizmoq ma’nosidagi fe‘lning hozirgi zamon shakli. Bu ma’noda o‘zbek tilida so‘z yasovchi qo‘shimchalardan biri hisoblanadi: *morboz*, *dorboz*, *qimorboz*, *masxaraboz* kabi.

Umuman, mazkur so‘zning ma’nolari 12 taga etadi. “Farhangi “Shohnoma”da fors adabiyotining yirik vakili Manuchehriyning olti baytlik qit’asi keltiriladi va ularning barchasida *boz* so‘zi tajnisli qofiya sifatida ishlatilgan². Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, *sarboz* so‘zida *boz*ning o‘ynamoq ma’nosi yotadi. Bunda fe‘lning ma’nosi kengayib, baxsh etuvchi, tikuvchi degan mazmun kasb etganini ko‘ramiz. Demak, *sarboz* aynan “bosh tikuvchi”, “boshi bilan javob beruvchi” ma’nolarini anglatadi. Bu holni *jonboz* so‘zida ham ko‘rish mumkin.

¹ Чориев З. Тарих атамаларининг қискача изоҳли луғати. – Тошкент, 1999. – Б. 96 .

² دکتر رضا زاده شفق «فرهنگ شاهنامه» از انتشارات مجمع ناشر کتاب. شماره ۷. ابن سینا. ۱۳۷۰. ص. ۴۷.

Eroniy qatlamga mansub o‘zlashma so‘zlarni tarkib jihatidan ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Tub so‘zlar.
2. Yasama so‘zlar.

Faqat o‘zak morfemadan iborat bo‘lib, tarkibida yasovchi qo‘shimcha mavjud bo‘lmagan so‘zlar tub so‘zlar hisoblanadi. Masalan, *shoh*, *sipoh* kabi. Lekin, ta’kidlash lozimki, ba’zida sinxron aspektida tub deb qaralgan so‘zlar diaxron nuqtai nazardan qaraganda yasama bo‘lib chiqadi. Misol tariqasida *dehqon* arab tili ta’sirida fonetik o‘zgarishga uchragan. Bu so‘z aslida *dehgon* (*deh* – qishloq o‘zagidan) bo‘lgan, hozir uning arabiydashgan shakli qo‘llanadi. Bu hodisa aslida bozorgon bo‘lgan bozurgon (*savdogar*) va aslida xonagoh bo‘lmish xonaqoh so‘zlarida ham ko‘zga tashlanadi¹.

Eroniy tillarda ot yaslashida morfologik usul ancha sermahsul bo‘lib, o‘zakka suffiks va prefikslarni qo‘shish orqali yangi so‘zlarni yuzaga keltiradi. Shunga ko‘ra morfologik usulda yasalgan so‘zlarni ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Suffikslar orqali yasalgan so‘zlar.
2. Prefikslar orqali yasalgan so‘zlar.

Xorazm folklor asarlarilaridagi morfologik usulda yasalgan so‘zlarning barchasi suffikslar orqali yasaladi. Xususan, *-bon*, *-gar*, *-dor* kabi qo‘shimchalarning sermahsulligini kuzatamiz. Mazkur qo‘shimchalarning har biri alohida leksik va morfologik xususiyatga ega ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

-bon qo‘shimchasi hozirgi fors, tojik, dariy tillarda quyidagi mazmunlarni ifodalaydi:

1. Shaxsning kasb-kori, mashg‘uloti turini anglatadi. Masalan, *bog‘bon*, *darbon* kabi.
2. Mansab nomlarini yasaydi: *marzbon*, *posbon*.
3. Fe‘lning o‘tgan zamon o‘zagiga qo‘shilgan holda ham kasb-kor nomini yasaydi: *didbon* kabi.

¹ Забони адабии ҳозираи тоҷик. – Душанбе: Ирфон, 1973. – С. 131.

4. Narsa-buyum nomini yasaydi: *soyabon* kabi ¹.

Xorazm folklor asarlarida ushbu qo‘shimcha yordamida yasalgan o‘zlashma so‘zlarga mansub so‘zlarni tahlil qilish orqali uning yangi vazifaviy jihatlarini ko‘rishimiz mumkin.

-bon qo‘shimchasi “saqlovchi, muhofaza qiluvchi” ma’nosida “Avesto”da *pana* shaklida uchraydi. Sanskrit tilida ham xuddi shu shakl va ma’noni anglatadi. Mazkur qo‘shimcha pahlaviy tilida *pan* shaklida ishlatilgan.

Marzbon so‘zi hozirgi fors tilida quyidagi ma’nolarni anglatadi: 1. Chegarachi; eskirgan: chegara istehkomi; 2. Tarixiy: marzbon (sosoniylar Eronida chegara viloyat hokimi); 3. Eskirgan: hokim, voliy². Fors tilida ushbu so‘zning *marzdor* shakli ham bor. Bu so‘zning o‘zagi bo‘lgan *marz* so‘zi “Avesto”da *merezu* shaklida biror o‘lka chegarasi degan ma’noni anglatadi. Mazkur elementlar armanchadagi marz, chot tilidagi marka (chegara belgisi), qadimgi irlandcha bruig, mruig, lotincha margo (chekka, qirg‘oq) so‘zlari bilan umumiy o‘zakka ega³.

Marz so‘zining to‘rtburchak shakliga keltirilib, atrofi baland qilingan ekin maydoni degan ma’nosi ham bor. O‘zbek tilidagi marza xuddi shu o‘zakdan deyish mumkin.

Tarixiy so‘z sifatida marzbon quyidagi ma’nolarni anglatganini ko‘rish mumkin:

1. Chegarachi, soqchi:

Qilib tortgan chog‘da tig‘i zabon,

Ki qilmay tuman tig‘lik marzbon. (“Saddi Iskandariy”)⁴.

2. Chegara viloyat hokimi.

Xullas marzbon qadimgi Aroxda viloyat hokimlariga berilgan unvon. Dastlab chegaraga yondosh o‘lkaning hokimi marzbon deb atalgan. Hozirgi tilda posbon – chegarachi ma’nosida ishlatiladi. Tabariy, Balazuriy kabi tarixchilar

¹ Забони адабии ҳозираи тоҷик. – С. 141.

² Персидско-русский словарь. Том 2. – М.: Русский язык, 1983. – С.494.

³ شمس الدین محمد بن خلف تبریزی. برهان قاطع. با اهتمام دکتر محمد معین. تهران. امیر کبیر. ۱۳۸۶. جلد ۴، ص ۱۹۸۶

⁴ Дадабоев Ҳ. Тарихий ҳарбий терминлар луғати. – Тошкент: Университет, 2003. – Б. 79.

Xorazm folklor asarlarilarida ham marzbон so‘zi uchraydi. Suryoniy tilida marzbano, marzabono tarzida, eski arman manbalarida marzipan, marzvan shaklida ishlatilgan¹.

Posbon so‘zi ham pos va -bon qismlaridan iborat.

Pos so‘zi quyidagi ma’nolarni anglatadi: 1. Saqlash, qo‘riqlash. 2. Sutka (kecha-kunduz)ning sakkizdan bir qismi, har bir bo‘lagini posiy deyishadi. 3. Navbat.

Mazkur so‘z “Avesto”da pathra, pahlaviyda pas, qadimgi fors tilida pasa shaklida qo‘llangan².

Qal’a davrin kechib tutar edi pos,

Ko‘nglida biym yo‘q, ichinda haros. (“Sab’ai sayyor”)³.

Posning kecha-kunduzning bir bo‘lagi ma’nosida Alisher Navoiy asarlarida ham uchratish mumkin:

Urmag‘aysen posbonlig‘ lofi ko‘k qo‘rg‘onida,

Voqif o‘lsang, ey ajal, hajrin tuni bir posidin⁴.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi “bir pas” birikmasida “pas” posning ayni shu vaqt bo‘lagi ma’nosidan kelib chiqqan. Bu so‘zning navbat ma’nosini ham Alisher Navoiy asarlarida uchratish mumkin:

Ani asrarlar erdi pos birla,

Yo‘lida qum to‘shab olmos birla⁵.

Eroniy qatlamga mansub o‘zlashma so‘zlar tizimida mustaqil so‘zlarning birikuvidan hosil bo‘lgan so‘zlar ham uchraydi. Bunday so‘zlarning tarkibini arabcha va forsiy (tahniyatnoma, aroyiznoma, fathnoma kabi), forsiy va forsiy (poytaxt, sipohsolor kabi), turkiy va forsiy (ko‘runishxona kabi) asoslar tashkil qiladi.

¹ شمس الدين محمد بن خلف تبریزی . برهان قاطع. با اهتمام دکتر محمد معین. تهران. امیر کبیر. ۱۳۸۶. جلد ۱. ص ۳۵۲.

² شمس الدين محمد بن خلف تبریزی . برهان قاطع. با اهتمام دکتر محمد معین. تهران. امیر کبیر. ۱۳۸۶. جلد ۱. ص ۳۵۳.

³ Дадабоев Х. Тарихий ҳарбий терминлар луғати. – Тошкент: 2003, – Б. 112.

⁴ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 6-жилд. – Тошкент: Фан, 1990. – Б.318.

⁵ Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. Илмий-танқидий матн. / Тузувчи: Порсо Шамсиев. – Тошкент, 1963. – Б.153.

Ko‘rinadiki, eroniy qatlamga mansub o‘zlashma so‘zlarga oid so‘zlarning tarkibiy tahlili ham turkiy va eroniy (xususan, fors, tojik, dariy) tillarining birlariga samarali ta'sirini ko‘rsatuvchi muhim faktlar taqdim etadi.

2.2. Arab lug‘aviy qatlamiga mansub o‘zlashma so‘zlar.

Ayonki, turkiy tillarga arabiy lug‘aviy birliklarining kirib kelishi VII-VIII asrlarda Markaziy Osiyoning arablar tomonidan istilo etilishi, bu hudud aholisining islom dinini qabul qilishi bilan bog‘liq. O‘zbek tili tarixiy leksikasini yozma manbalar asosida ko‘zdan kechirar ekanmiz, unda arabizmlar salmog‘i XIX asr oxiri va XX asr boshlarigacha tadrijiy ko‘payganini ko‘rishimiz mumkin. Qadimgi turkiy bitiklarda arab so‘zlari bo‘lmagani holda¹, XI asr yodgorligi “Qutadg‘u bilik”ka nisbatan XII-XIII asrlar yodgorligi deb topilgan “Hibatul-haqoyiq”da arabizmlar ko‘proq uchraydi².

Arab lug‘aviy birliklari, birikmalarining turkiy tillar, jumladan, o‘zbek tiliga o‘zlashish sabab va vositalari haqida olimlarimiz ko‘plab ilmiy mulohazalarni bayon qilganlar³.

Xorazm folklor asarlarilaridagi arab lug‘aviy qatlamiga mansub o‘zlashma so‘zlarni, asosan, davlat boshqaruvi bilan bog‘liq o‘zlashma so‘zlar va diniy mavzularga oid o‘zlashma so‘zlar tashkil etadi.

Quyida mazkur o‘zlashma so‘zlarning Xorazm folklor asarlari izohi va ularga misollar keltiramiz:

Hokim so‘zi. Uning o‘zagi bo‘lgan *hakama* fe’li boshqarmoq, hokimlik qilmoq, boshchilik qilmoq mazmuniga ega. Hokim so‘zining birlamchi lug‘aviy ma’nosi boshqaruvchi, hokimlik qiluvchi, boshchilik qiluvchidir.

¹ Абдурахмонов Ф., Рустамов А. Қадимги туркий тил. – Тошкент: Ўқитувчи, 1981. –Б. 80.

² Н.М.Маллаев. Ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1976. – Б.140.

³ Абдуллаев Ф. Арабизмы в узбекском языке: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Ташкент, 1945; Ўша муаллиф. Ўзбек тили лексикасининг баъзи бир масалаларига доир // Тил ва адабиёт институтилари, 1-китоб. Тошкент, 1946. – Б.83-93; Акылбекова З. Арабизмы // Источники формирования тюркских языков Средней Азии и Южной Сибири. –Фрунзе, 1964; Мадрахимов О. Ўзбек тилининг ўғуз лаҳжаси лексикаси. – Б.41-46;Усмонов С. Ўзбек тилининг луғат составида тожикча-форсча ва арабча сўзлар // Навоийга армуғон. Тошкент, 1968. – Б.109-120; Ўзбек тили лексикасида арабча сўзлар // Ҳозирги замон ўзбек тили. Лексикография. Фонетика. Графика ва Орфография. Морфология. Фахри Камол таҳрири остида. –Тошкент: Ўз ФАН, 1957. – Б.99-101; Бегматов Э. Арабча ўзлашма сўзлар қатлами // Ўзбек тили лексикологияси. Тошкент: Фан, 1981. – Б.11-124.

Go‘ro‘g‘li bilan bir qancha yo‘l yurib borgandan keyin, Oysulton so‘radiki, qani Ravshanbek, siz shu yerning *hokimi* bo‘ladigan bo‘lsangiz, Go‘ro‘g‘lini biladigan bo‘lsangiz, men shundan shunga kelibman, og‘amni ko‘rmaganim ko‘rmagan, og‘amning yotgan joyini ko‘rsatsangiz, uni ziyorat qilib ketsam yaxshi bo‘lar edi, dedi. 1 // 310.

Mahram – xonning davlat ishlarida maslahatlashadigan, alohida va maxsus vazifalarni bajaruvchi amaldor bo‘lib, uning asosiy mashg‘uloti xonlikdagi karvon va chorva mollaridan soliq yig‘ish bo‘lgan¹.

Mahram so‘zining etimologiyasi uning o‘zakdoshlari *muharram*, *harom*, *ehtirom* kabilarga qiyosan o‘rgansak, ushbu fikr yanada oydinlashadi. Jumladan, *muharram* hijriy-qamariy taqvimning birinchi oyi nomi. Mazkur oy johiliyat davrida urush va janjallar ta‘qiqlangan “shuhuri harom” deb atalgan to‘rt oyning biridir. “G‘iyos ul-lug‘ot” muallifi ham “johiliya davrida bu oy davomida odamlarga urush ta‘qiqlangani bois mazkur oy shu nom bilan atalgan” deb izoh bergan. Haqiqatan ham, muharram so‘zi o‘zagini “ta‘qiq qilinmoq, ulug‘ bo‘lmoq, hurmatli bo‘lmoq” ma‘nosidagi haruma fe‘li tashkil qiladi. Muharram mazkur I bobdan hosil qilingan II bob – *harramaning* majhul nisbat sifatdoshidir. Bu fe‘l tarkibidagi tovushlar soni va sifati (aqsom) bo‘yicha sahih (solim) bo‘lgani uchun uning majhul nisbat sifatdoshi mufa‘alun vaznida bo‘ladi². Demakki, muharram “ta‘qiqlangan”, “harom qilingan” degan ma‘noni beradi. Shundan kelib chiqqanda mahram – o‘zgalar uchun ta‘qiqlangan, harom qilingan narsalar (xoh moddiy, xoh ma‘naviy) egasi. Shuning uchun ham tanmahram, go‘ri mahram tushunchalari kelib chiqqan: Shu vaqtgacha sen bir chekkada yashirinib yotgandan keyin bizlar nima qilaylik, dedi Safar ko‘sa. Go‘ro‘g‘li bilan Safar mahramni ovozlari eshitib, boshqa yigitlar ham yoriq-teshikdan chiqib Go‘ro‘g‘lining tevaragiga to‘plandilar. 1 // 319.

¹ Баскаков Н.А. Титулы и звания в социальной структуре бывшего Хивинского ханства// Советская тюркология. – 1989. – №1. – С.69.

² Иброҳимов Н. Юсупов М. Араб тили грамматикаси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 1997. – Б. 175.

a) diniy rutba va lavozimlar nomi:

Qozi – musulmon jamoasidagi sudya:

Endi surar bo‘ldik, munda davronlar,
Do‘stlarim shod bo‘lib, yig‘lar dushmanlar,
Keling, mulla-mufti, *qozi kalonlar*,
Iqdi nikoh qiling, Tallixon o‘tsin! 1 // 390.

Shayx – 1. Ilohiyot olimi. 2. Tariqat piri. 3. Qadamjo mutassadisi. Masalan:

Xayrulbashar xo‘blar xo‘bi,
Qodir Ollohning Mahbubi,
Shayx Mansur, Mullo Rumi,
Bu g‘amlardan qutqar mani. 1 // 10.

Shayx ul-islom – oliy ruhoniylar unvoni: Bu xabar Qoraxonning ham qulog‘iga yetib, yig‘in tortib, *shayxulislom-u* sarkardasi, umarosi-yu fuqarosi bilan Seyistonga qarab kelaverdi. 1 // 317.

Mufti – diniy va dunyoviy ishlarni fiqhiy jihatdan o‘rganuvchi, fatvo beruvchi: Ammo Go‘ro‘g‘li bir qarasa, Buldur qassobning mayxonasida bir guruh *mulla-mufti* soqolini siypab, choyxo‘rlik etib, kitob o‘qib o‘tirishibdi. 1 // 73.

b) mazhab va sekta nomlari:

Sunniy – islomdagi ikki mazhabning biri. Ahli sunna va-l-jamoa mazhabi: – Hov yigitlar, dedi Mustafobek, bu zang‘ar *sunniyning* qo‘lidan Avazxonni inshoollo olarmiz. 1 // 93.

d) diniy-iqtisodiy mazmundagi ijtimoiy-siyosiy so‘zlar:

Xorazm folklor asarlarilarida ushr va *zakot* so‘zlari ham sof diniy-iqtisodiy mazmundagi so‘z sifatida, ham ushru zakot tarzida soliq, umuman, davlat tomonidan joriy qilingan to‘lovlar ma‘nosida qo‘llanganini ko‘rishimiz mumkin. Go‘ro‘g‘li aytdiki, mening ismim Ravshanbek, men Go‘ro‘g‘lining odami bo‘laman, dedi. Go‘ro‘g‘li og‘am, shu yerdan o‘tgan kishilarning mollaridan mulklaridan *zakot* olib qolaver, deb qo‘yibdi, dedi. Bozirgon: bizdan ham *zakot* olasanmi, dedi. Shu senga o‘xshash kishilardan zakot olish uchun, ham bu yerda

yuribman dedi. Bozirgon aytdiki, jo'ra zo'r bo'lsang *zakot* olarsan, ojiz bo'lsang keyinga qaytib ketaverarsanda, dedi. 1 // 295.

Xiroj davlat yerlaridan to'planadigan soliq bo'lib, Markaziy Osiyoda islom dinining tarqalish jarayonida joriy etilgan. Shariatda xiroj xiroji muqosama va xiroji muvazzafa tarzida ikki turga bo'linadi. Xiroji muqosama qilib belgilangan yerlardan ekinning beshdan biri yoki to'rtidan biri olinadi. Bunday yerlardan daromadga qaraganda xarajat ko'paysa yoki ekilmay qolsa, xiroj olinmaydi. Shuningdek, ekishga yaroqli (xiroji muvazzafa) yerning egasi ekmay bo'sh qo'ysa ham xiroj to'laydi. Ana Go'ro'g'li bo'lsam bo'ldim, deb yurtida yakka o'zim qoldim, deb yigitlarga *boj-xiroj* va'da etib, Chamlibelni qamal qilamiz, Parizodni asir olamiz, deb Safar ko'sa bichib-to'qib lof ura berdi. 1 // 400.

f) diniy-harbiy mazmundagi ijtimoiy-siyosiy so'zlar. Xorazm folklor asarlarida uchraydigan harb ishiga oid so'zlarni shu tarzda kichik guruhga ajratishimiz boisi shuki, ularda diniy mazmun ustunlik qiladigan o'rinlar mavjud. Jumladan, *g'azot* so'zi umuman jang, urush ma'nosini emas, balki din yo'lida olib borilgan jang, harbiy harakat ma'nosini ifodalaydi.

G'azotim bor, Chandibela,
O'n ikki ming polvon yursin.
Laka shohim, bizning birla,
Shoh o'g'li Mahmudjon yursin. 1 // 133.

G'oziy so'zi *g'azovot* so'zi bilan o'zakdosh bo'lib, din yo'lidagi urush ishtirokchisidir. G'ayridinlarga qarshi urush ishtirokchisi *g'oziy* hisoblangan, bunday urushlar olib borgan, sarkardalik qilgan ba'zi podshohlar Abulg'oziy (aynan *g'oziyning* otasi) laqabini olgan. Jumladan, Abulg'oziy Bahodirxon "Shajarai turk"da yozishicha, unga bu ism otasi Arabmuhammadxonning Kaspiy bo'yicha g'ayridinlar ustidan qozongan g'alabasi munosabati bilan qo'yilgan¹.

¹ Абулғози Баҳодирхон. Шажарай турк. – Тошкент: Чўлпон, 1992. – Б. 167.

Mana shu kichik guruhga mansub shahodat, shahid soʻzlari oʻzakdosh boʻlib, shahid “din yoki mazhab yoʻlida halok boʻlgan shaxs”¹, shahodat esa shahid holda halok boʻlish degan maʼnoni anglatadi.

Mard urishsa mastdek boʻlar,
Ikki koʻzi qonga toʻlar,
Gʻazot kuni shahid oʻlar,
Raqiblarning loshin koʻzlar. 1 // 175.

Fiqhda shahid soʻzi yuqorida izohlanilganidan koʻra kengroq maʼnoga ega. Shahid shariatda janobatdan, hayzdan va nifosdan pok holda zulm bilan oʻldirilgan boligʻ musulmondir. Shuningdek, jangchi jang maydonidan olib chiqib ketilmasdan turib oʻlsa, shahid hisoblangan².

2.2. Arab lugʻaviy qatlamiga xos oʻzlashma soʻzlarning etimologik tahlili. Dostonlarda oʻzlashma soʻzlar tizimida arab tilidan oʻzlashgan soʻzlar ham koʻplab uchraydi.

Arab tilidan oʻzlashgan soʻzlarni yasaliş xususiyatiga koʻra dastavval quyidagicha tasnif qilishimiz mumkin:

Tub soʻzlar.

2. Yasama soʻzlar.

Tub soʻzlar faqatgina bir soʻzdan tashkil topadi. Masalan, mazhab, xiroj, amir va hokazo. Xorazm folklor asarlaridan bunga koʻplab misollar keltirishimiz mumkin. Lekin shuni alohida taʼkidlash lozimki, biz oʻzbek tili nuqtai nazaridan sodda soʻz sifatida qabul qiladigan soʻzlarning aksariyati aslida yasama boʻlib, arab tilidagi ichki flektsiya qoidalari asosida yuzaga kelgan. Ular oʻzbek tiliga tayyor leksema sifatida qabul qilingan, demak, ularga sinxron aspektda sodda soʻz sifatida qarashga haqlimiz. Tarixiy nuqtai nazardan esa biz sodda deb qabul qilgan soʻzlarning aksariyati yasama hisoblanadi. Ularning tarkibiy tahlilini arab tilining ichki flektsiya qonuniyatlariga asoslanmasdan turib amalga oshirish mumkin emas.

¹ Ўзбек тилидаги арабча ва форсча сўзлар луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – Б.106.

² Мухтасар. Арабчадан Р.Зоҳид ва А.Деҳқон таржимаси. – Тошкент: Чўлпон, 1993. – Б. 56.

Bundan tashqari eski o'zbek manbalarida arabiy o'zlashmalarni shu tarzda tahlil qilish Xorazm folklor asarlari muallifining o'zlashmalarni qo'llash sababi, sinonimlardan foydalanish mahorati kabi jihatlarni yoritishga xizmat qiladi. Muhimi, tahlilni bu tarzda olib borish o'zbek tilidagi arabiy o'zlashmalarning etimologiyasiga oid ayrim chalkashliklarga barham beradi.

Ma'lumki, arab tilida fe'l nihoyatda muhim so'z turkumi hisoblanib, ko'pgina ismlar ham fe'ldan hosil bo'ladi. Bu holni o'zbek tiliga o'zlashgan tarixan arab leksik birligi hisoblangan so'zlarning yasaliş xususiyatida ham ko'rishimiz mumkin. Shunga ko'ra tarixan yasama bo'lgan arabiy asosli o'zlashma so'zlarni solim fe'llardan yasalgan so'zlar va noto'g'ri fe'llardan yasalgan so'zlarga ajratish maqsadga muvofiqdir. Quyida ulardan har biriga kiruvchi so'zlarning leksik-semantik jihatlari ko'rib chiqamiz:

3.3.1. Solim fe'llardan yasalgan so'zlar.

Tarkibida hamza bo'lmagan yoki bir xil undosh ikki marta takrorlanmagan fe'llar sahih fe'llar sanaladi¹. Bunday o'zaklar o'zbek arabshunosligida sahih fe'l, to'g'ri fe'l terminlari bilan ifodlanadi².

Arab tilidagi fe'llarning asosiy qismi uch undoshlidir³. Uch undoshli fe'llarning masdarlari turli qoliplarda bo'ladi. Masalan fu'l qolipi. Siyosiy mazmundagi sulh so'zi shu qolipda yasalgan. Mazkur so'z tinchlik, kelishuv, tomonlar o'rtasidagi murosa ma'nolarini anglatadi va saluha yoki salaha – yaxshi bo'lmoq fe'lidan hosil bo'lgan⁴.

3.3.2. Noto'g'ri fe'llar asosida yasalgan so'zlar.

Arab tilidan o'zlashgan so'zlarni yasaliş xususiyatiga ko'ra tasnifida ularning o'zagini tashkil etuvchi harflar xususiyatiga ko'ra ham tasnif qilgan holda o'rganish maqsadga muvofiqdir. Arab tilidagi fe'l o'zaklari tarkibidagi harflar

¹ جان. Қўлёзма. Шахсий кутубхонамизда. – С. 107.

² Талабов Э. Араб тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993.

³ Талабов Э. Араб тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993. –Б.34.

⁴ Баранов Х.К. Арабско-русский словарь. – М.: Русский язык, 1983. –С. 442.

xususiyatiga ko‘ra yetti guruhga ajratiladi: sahih (to‘g‘ri), muzoaf, misol, ajvaf, noqis, lafif, multaviy¹.

Биз yuqorida sahih (to‘g‘ri) fe‘llar asosida hosil bo‘lgan so‘zlar xususida gapirgan edik. Endi tasnif doirasida noto‘g‘ri fe‘llar asosida hosil bo‘lgan ba‘zi so‘zlar xususida so‘z yuritsak.

Hamzali fe‘llar va ular asosida yasalgan so‘zlar. Hamzali fe‘llar o‘zagi tarkibida hamza ishtirok etadi va bu hodisa an‘anaviy arab grammatikasida mahmuz deb yuritiladi. Boshqacha qilib aytganda, hamzali fe‘llarning uch o‘zak undoshidan biri illat harflar – “alif”, “vov”, “yo”dan biri bo‘ladi.

Birinchi o‘zak undoshi hamzadan iborat fe‘llar misol fe‘llar deyiladi. Misol fe‘llarining ko‘plab morfologik shakllari (qoliplarga tushishi) to‘g‘ri fe‘llar kabi bo‘lgani bois shunday (o‘xshash, monand) deb nomlanadi. Shuning uchun ham misol fe‘llar hozirgi arab tili darsliklarida solimsifat fe‘llar (N.Ibrohimov va M.Yusupov) va to‘g‘riga o‘xshash (E.Talabov) atamaları bilan ifodalangan².

Misol fe‘llar asosida yuzaga kelgan so‘zlarni Xorazm folklor asarlarilarida ko‘plab uchratishimiz mumkin. Shulardan biri *amir*dir.

Amir amaro – buyurmoq, farmoyish bermoq fe'lidan hosil bo‘lgan bo‘lib, buyuruvchi, farmonravo ma'nolarini ifodalaydi³.

Tarixiy so‘z sifatida amir bir necha ma'noni bildiradi:

Davlat tuzumi amirlik (amorat) bo‘lgan davlatning boshlig‘i, monarxi. Masalan, Buxoro amiri.

Amorat – hokimlik, beklik, lashkarboshilik mansabi sohibi¹. “Amorat so‘zi amir bilan o‘zakdosh va bu hol har ikkala so‘zning ma'nolarida ham ko‘zga tashlanadi. Amorat so‘zi faqat beklik, amirlik mazmunigina emas, siyosiy tuzum ma'nosidagi amirlik ma'nosini ham ifodalaydi.

¹ بدان . Қўлёзма. – С.107.

² Арабско-русский словарь. – С. 43-44.

³ Арабско-русский словарь. – С. 43-44.

Amir soʻzi baʼzan qisqargan holda mir shaklida ham qoʻllanilgan. Masalan, Amir Alisher Navoiy – Mir Alisher Navoiy. Amirning qisqartma shakli miroxur, mirshikor, mirob kabi soʻzlar tarkibida ham mavjud¹.

Amir komponentli yana bir soʻz bu amir ul-umaro aynan amirlar amiri degani boʻlib, ikki arabcha soʻzning arabiy izofa orqali birikishidan hosil qilingan va yuqori davlat lavozimlaridan birining nomidir.

Endi Goʻroʻgʻli bilan Avazxon Tabrizda boʻlib turabersin. Xabarni kimdan eshit, Mirzo Sultondan. Tabrizning yaqinida Hirot degan bir el boʻlib, uning Mirzo Sulton degan *amiri* bor edi. 1 // 99.

Bu xabar Qoraxonning ham qulogʻiga etib, yigʻin tortib, Shayxulislomu, sarkardasi, *umarosiyu* fuqarosi bilan Seyistonga qarab kelaverdi. 1 // 317.

Asir soʻzi ham siyosiy maʼno kasb etib, jangda yoki biror yoʻl bilan qoʻlga olingan, oʻz erkinligini yoʻqotib, gʻolib tomon ixtiyoriga oʻtgan shaxs maʼnosini ifodaydi. Mazkur soʻzning oʻzagi asara tutmoq, asirga olmoq feʼlidir. Shu xon Avaz qirq yigiti bilan Xunxorshohga asir tushdi. 1 // 327.

Oʻzbek tilida asorat shaklidagi ikkita soʻz boʻlib, mazkur omonimlar anglatgan maʼnolari bilangina emas, balki oʻzak eʼtibori bilan ham farqlanadilar: 1. Asorat – tutqinlik, qullik, erksizlik holati. 2. Asorat – boʻlib oʻtgan (voqea-hodisa va h.k.)ning qoldigʻi, izlari².

Demakki, eski oʻzbek yozuvida bu ikkala soʻzdagi s arab tilida “se” va “sin” bilan ifodalangani bois, omograf hisoblanmaydi.

Vazir soʻzi hukmdorning yaqin siyosiy maslakdoshi va koʻmakchisi mazmunida oliy martaba egasi va davlat ishlarining muayyan bir sohasini boshqaruvchi shaxs maʼnolarini kasb etadi:

Toymas begim, balli Rustam boʻlmadi,
Dali Mehtar, Hamdam *vazir* kelmadi,
Safar ogʻam mendan xabar olmadi,

¹ Чориев З. Тарих атамаларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент, 1999. – Б.77; Рустамов А. Сўз хусусида сўз. – Тошкент, 1987. – Б.133.

² Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тили омонимларининг изоҳли луғати. – Б.22.

Duv talashgan to'rt ayg'irim kelmadi. 1 // 332.

Vazirning hozirgi o'zbek adabiy tilidagi ma'no taraqqiyoti xususida A.Mo'minova batafsil so'z yuritgan¹.

Vakil vakala – ishonmoq, tayanmoq fe'lidan fa'il ???? vaznida hosil bo'lgan² ва ҳукмдорнинг маълум имтиёзга эга бўлган ишончли одами, ваколатли шахс:

Noqis fe'llar asosida yasalgan so'zlar. Uchinchi asliy harfi illat harf bo'lgan fe'llar noqis sanaladi³.

Haq etmagay senga azob,
G'oziy bo'lmoq yaxshi savob,
Go'ro'g'li der, berdim javob,
Barakalla, botir Hasan! 1 // 353.

Mazkur so'z arabcha g'aza – hujum qilmoq, egallamoq fe'lidan hosil bo'lgan bo'lib, aqsom bo'yicha noqis (oxirgi o'zagi illat harf) bo'lgani bois uning aniq nisbat sifatdoshi yasalishida tovush o'zgarishi hosil bo'ladi. Ya'ni, noqis fe'llarning aniq nisbat sifatdoshi uning butunlay tushirib qoldirilib, o'rniga “tanvin kasra” qo'yish bilan hosil qilinadi. Lekin sifatdosh aniq holatga kelganida tanvin yo'qolib, o'rniga “yo” harfi orttiriladi⁴. Demak, g'aza fe'lidan g'ozī hosil bo'ladi va u aniq holatda alg'ozī shaklini oladi. O'zbek tilida holat kategoriyasi bo'lmagani bois u g'oziy shaklida o'zlashgan.

G'oziyning lug'aviy ma'nosi ismi fo'il anglatgan ma'noga ko'ra “egallovchi”dir. G'oziy “islom dini uchun g'ayri dinlarga qarshi muqaddas urush – g'azovot ishtirokchisi. Shariatga ko'ra bunday urushda oti va qurol-yarog'i bor har bir musulmon erkak qatnashishi shart bo'lgan. Kambag'allar, qullar, nogiron va keksa kishilar bundan ozod etilgan”⁵. G'oziy bilan o'zakdosh g'azot yoki

¹ Мўминова А. Ўзбек тилида мансаб ва унвон номларининг лексик-семантик таҳлили: Филол. фанл. номз. дисс. – Тошкент, 2000. – Б.29-33.

² Баранов Х.К. Арабско-русский словарь. – С. 900.

³ Жаноҳ ут-толиб. Араб тили сарф фанидан дарслик. – Тошкент: Мовароуннахр, 2004. – Б.39.

⁴ Араб тили грамматикаси. – Б.150.

⁵ Чориев З. Тарих атамаларининг қисқача изоҳли луғати. – Б.138.

g'azovot so'zlari "din uchun kurash, islomda g'ayridinlarga qarshi musulmonlarning muqaddaslashtirilgan urush"dir.

G'ozī hozirda keng iste'molda emas. Bu so'z G'ozī, G'ozgon, G'oziboy tarzlarida antroponimlarga ham asos bo'lgan¹.

Ko'rinadiki, Xorazm folklor asarlarida qo'llanilgan arabiy asosli o'zlashma so'zlarning tarkibiy tahlili ularning ma'no taraqqiyotini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

Demak, eroniy qatlamga mansub so'zlarning aksariyati tarixan yasama bo'lib, ularning barchasi affiksatsiya usulida yasalgan. Tahlil qilingan so'zlar yasalişhida -bon, -dor affikslari serunumligi bilan ajralib turadi: arab lug'aviy qatlamiga mansub so'zlarning ham aksariyati yasama bo'lib, uch undoshli solim fe'llarning turli qoliplarida hosil qilingan. Shu bilan birga noto'g'ri fe'llar asosida yuzaga kelgan so'zlar ham ko'pchilikni tashkil qiladi; o'zlashma so'zlarning ko'pchiligida ularning asl lug'aviy ma'nolaridan birining taraqqiyoti natijasida o'zlashma so'zlarga mansub birliklar yuzaga kelgan.

Ushbu bobda tahlil qilingan misollar va keltirilgan faktik materiallar quyidagicha umumiy xulosalarni bayon qilish imkon beradi:

1. Dostonlardagi turkiy qatlamga mansub so'zlarning aksariyati etimologik jihatdan qadimgi turkiy asoslardan tashkil topgan. Turkiy tillarning so'z yasalişh imkoniyatlari o'zlashma so'zlar doirasida turkiy so'zlarning salmog'ini oshiruvchi mezonlardan biri bo'lgan.

2. Eroniy qatlamga mansub so'zlarning ayrimlari fonetik variantlarda ishlatilgan. Ulardan ba'zilar hozirgi o'zbek adabiy tilida faol ishlatiladi. Shu bilan birga ushbu so'zlarning Xorazm folklor asarlarida anglatgan ma'nolari hozirgi o'zbek adabiy tilida anglatgan ma'nolaridan farq qiladi. Bu so'zlarning ko'pchiligi sinxron jihatdan sodda tub so'z hisoblansa ham, etimologik tahlil ularning aksariyati tarixan yasama ekanini ko'rsatdi.

¹ Бегматов Э. Исм чиройи. – Тошкент: Фан, 1994. – Б.117.

3. Tahlilga tortilgan ayrimlarini sinxron jihatdan ma'noli qismlarga ajratish mumkin. Bu holda ular arabcha+forscha, forscha+forscha tarzida hosil qilingan.

4. Ushbu to'plamga mansub so'zlar ichida substrat sifatida qarashga mumkin bo'lganlari ham uchraydi.

5. Xorazm folklor asarlari leksikasida eroniy qatlamga mansub aksar so'zlarning turkiy muqobili ishlatilganini folklor asarlarida o'zlashma so'zlardan foydalanish mahorati mezonlaridan biri deb qarash mumkin.

6. Arab lug'aviy qatlamiga mansub ko'pchilik so'zlarning ham turkiy muqobili ishlatilgan. Turkiy muqobilga ega bo'lmagan so'zlarning aksariyatini diniy mazmundagi o'zlashma so'zlar tashkil qiladi.

III B O B

XORAZM FOLKLOR ASARLARI LEKSIKASINING TARKIBIY TAHLILI

Xorazm folklor asarlari leksikasining salmoqli qismini turkiy, eroniy va arabiy lugʻaviy birliklar tashkil qilgani bois mazkur tillarning oʻziga xos morfologik tizimga ega ekanligini eʼtiborga olib, ushbu bobda Xorazm folklor asarlari lugʻaviy fondiga mansub soʻzlarni tegishli ikki boʻlimda tahlilga tortish maqbul, deb topdik.

3.1. Eroniy qatlamga mansub soʻzlarning tarkibiy tahlili. Xorazm folklor asarlaridagi eroniy qatlamga mansub soʻzlarni tarkib jihatidan ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Tub soʻzlar.
2. Yasama soʻzlar.

Faqat oʻzak morfemadan iborat boʻlib, tarkibida yasovchi qoʻshimcha mavjud boʻlmagan soʻzlar tub soʻzlar hisoblanadi. Masalan, *shoh*, *sipoh* kabi. Lekin taʼkidlash lozimki, baʼzida sinxron aspektida tub deb qaralgan soʻzlar diaxron nuqtayi nazardan qaraganda yasama boʻlib chiqadi. Misol tariqasida *dehqon* arab tili taʼsirida fonetik oʻzgarishga uchragan. Bu soʻz aslida *dehgon* (deh – qishloq oʻzagidan) boʻlgan, hozir uning arabiylashgan shakli qoʻllanadi. Bu hodisa aslida *bozorgon* boʻlgan *bozurgon* (savdogar) va aslida xonagoh boʻlmish xonaqoh soʻzlarida ham koʻzga tashlanadi¹.

Eroniy tillarda ot yasashida morfologik usul ancha sarmahsul boʻlib, oʻzakka suffiks va prefikslarni qoʻshish orqali yangi soʻzlarni yuzaga keltiradi. Shunga koʻra morfologik usulda yasalgan soʻzlarni ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Suffikslar orqali yasalgan soʻzlar.
2. Prefikslar orqali yasalgan soʻzlar.

¹ Забони адабии ҳозираи тоҷик. – Душанбе: Ирфон, 1973. – С. 131.

Xorazm folklor asarlarida morfologik usulda yasalgan soʻzlarning ayrimlari suffikslar, ayrimlari prefikslar orqali yasalgan. Xususan, *-anda*, *-gar*, *-dor* kabi qoʻshimchalarning sermahsulligini kuzatamiz. Mazkur qoʻshimchalarning har biri alohida leksik va morfologik xususiyatga ega ekanligini koʻrishimiz mumkin.

Jumladan, *parranda* soʻzi oʻzbek tili nuqtayi nazaridan tub soʻz sanalsa ham, hozirgi fors tilida *par* va *-anda* (*-ande*) qismlaridan tashkil topgan. *Par* fors tilida *paridan* – uchmoq feʼlining hozirgi zamon negizi hisoblanib, mazkur feʼl pahlaviy tilida *paritan* shaklida ishlatilgan va “Avesto”da *porena* koʻrinishida boʻlgan¹. Har ikkala tarkib birgalikda aynan uchadigan, uchuvchi mazmunidagi hozirgi zamon sifatdoshi (fors tili grammatikasida sefat-e foʻeliy) hosil qiladi. Bunday soʻzlar aksar holda otlashadi va oʻzbek tiliga mazmuniga koʻra aksar ot (*xonanda*, *sozanda*, *namoyanda*), ayrim hollarda sifat (*soʻzanda* – aynan, kuyuvchi, yoniq; kuyunchak mazmunidagi sifat) qabul qilingan.

Pari soʻzining ham etimologiyasi ushbu soʻz bilan bogʻlanadi. *Pari* yo-yi maʼruf (choʻziq talaffuz qilinuvchi “i”) bilan “nihoyatda chiroyli suvratda tasavvur qilinadigan ayol qiyofasidagi jin” maʼnosini bildiradi². *Pari* haqidagi mifologik tasavvurlar tahlilidan uning nomlanish sababi *parilarning* uchib yurishiga bogʻliq, deb hisoblash mumkin. Ikkinchi tomondan eʼtibor bersak, *par* (qanotning *pari*) maʼnosidagi soʻz pahlaviy tilida *par*, “Avesto”da *parana* shaklida boʻlgan va hozirgi fors tili uchun arxaik soʻz hisoblangan “yorugʻlik”, “nur”. “ziyo” mazmunidagi *par* soʻzi aslida bir soʻzning bosh va koʻchma maʼnolari oʻrtasida mantiqiy zanjirning uzilishi natijasida hosil boʻlgan. *Par* qayd etilgan maʼnoda fors adabiyoti klassiklari tilida qoʻp ishlatilgan. Masalan, Jaloliddin Rumi devonidan:

Chashmro sad *par* zi nuri aksi ruxsori shumo,

Eyki, har du chashmro yak *par* mabodo beshumo³,

¹ Шамсуддин бин Халаф Табризий. Бурхони қотей. – Техрон: Амири кабир, 1375 х.ш. – С. 392.

² Фиёсиддин Муҳаммад. Фиёс ул-луғот. Лакхнау. 1886. – С. 101.

³ بزرگترین کتابخانه شعر فارسی. درج ۳. Al-rams. www.mehrahgam.com.

ya'ni "ko'z sizning yuzingiz nuri aksidan yuz nur oladi, har ikki ko'zga ham nuringizsiz biror nur bo'lmasin!" Demak, *pari* so'zining etimologiyasi *parning* qayd etilgan ikkinchi ma'nosi bilan aloqador ko'rinadi.

Par o'zagi bilan aloqador so'zlardan biri *parishondir*. Ushbu so'z tarixan ikki tarkibiy qismdan iborat: *parish* + *on*. *Parish* fors tilida quyidagi ma'nolarda ishlatilgan: 1. tarqoq, *parishon* so'zining poetik shakli, *xotirparish* – *parishonxotir*)¹; 2. Tarqatuvchi (*xokparish* so'zidagi kabi). E'tiborlisi, fors tili uchun ham kam iste'molda bo'lgan *parish* so'zi Xorazm shevalarida "ipak qurtining pilla o'rash ibtidosida atrofiga o'raydigan o'rgimchak to'riga o'xshash ipagi" ma'nosida ishlatiladi. Ushbu ma'noning fors tilida mavjud emasligi uning xorazmiy tilidan "meros"ligini ko'rsatadi. Hozirgi avlod *parish* so'zining asl ma'nosini bilmasa ham, "parishini buzdi" iborasini "birovni uyqudan bevaqt uyg'otdi" ma'nosida tushunadilar. "Parishon" hozirgi o'zbek tilida asosan mavhum tushunchalar (xayol, fikr kabi) va ma'shuqa sochi kabi ayrim real tushunchalarga nisbatangina ishlatiladi. Shuningdek, fors tilida *parishon* kardan – "tarqatmoq" fe'li o'zbek tilidagi "tarqatmoq" fe'liga muvofiq hollarda ishlatiladi: Tu charo xalqro *parishon* mekuni? (Shayx Sa'diy, "Guliston")² – Sen nega xalqni tarqatasan?

Shohimardon ustimizda daldadir,

Bulbulning orzusi toza guldadir.

Ko'nglim *parishondir*, ko'zim yo'ldadir,

Bor, Hamrohim, sog' bor, omon kelgaysan. 1 // 11.

Daryo ichida baliqlar,

Do'stu yoru xaloyiqlar,

Huru *pari*, maloyiklar,

O'zlar dosh qoldi, dosh qoldi. 1 // 14.

Anda Oshiq Ahmad aydi:

¹ Шамсуддин бин Халаф табризий. Бурхони қотей. – Техрон: Амири кабир, 1375 х.ш. – С. 296.

² بزرگترین کتابخانه شعر فارسی. درج ۳. www.mehrahgam.com.

– Bu bog‘ yana bir *parining* bog‘i bo‘lmasin, man o‘zim xabar olayin, – dedi, – Man yoshimni angrisig‘a etibman. Bir sanach unni ko‘proq yebman. Harna bo‘lsam man bo‘layin, san otlarni tutib o‘tir, – dedi. Oshiq Ahmad bog‘ning obimo‘risidin kirdi. Ko‘rdiki, ajab bir bog‘dir. Olmalar, mevalar pishib, bulbullar sayrashib, qumrilar dam tortib, buloqlar har tarafg‘a oqib boradir. Oshiq Ahmad olmalarni qoqib yemakka boshladi. 1 // 16.

Pari paykar, ulug‘ gunoh etmisham,
Termisham bir necha olma bog‘ingdin.
Bog‘ning egasiyam, bog‘bon degilam,
Termisham bir necha olma bog‘ingdin. 1 // 17.
Parim sayla chiqmish bog‘ orasina,
Oroyish aylamish budog‘i olma.
Bog‘ing egasiyam, bog‘bon degilam,
Istasam berursan budog‘i olma. 1 // 19.

Xorazm folklor asarlaridagi eroniy qatlamga mansub so‘zlarning ayrimlari tarixan predlog + mustaqil so‘z shakliga ega. Jumladan, *barbod* so‘zi. Ushbu so‘z bar predlogi va “shamol” ma’nosidagi “bod”dan tarkib topgan. Hozirgi fors tilida “ustida”, “uzra” kabi ma’nolarni bildirgan *bar* predlogi aslida mustaqil so‘zdan shakllangan. Mumtoz fors adiblari tilida *abar* so‘zi “yuqori”, “tepa”, shu asosda “falak burji” ma’nolarini beradi. Masalan, “Shohnoma”dan olingan quyidagi baytda “falak burji” ma’nosida ishlatilgan:

Abar dah-u du shud haft shud Kadxudoy,
Giriftand har yak sazovor joy¹,

ya’ni falak burjlari (abar – yuqori) o‘n ikki, Kadxudoy etti bo‘ldi, har biri munosib va mutanosib joy oldilar.

Uning “yuqori”, “tepa” kabi ma’nolari Eron toponimiyasidagi Abarkuh (Ajam Iroqidagi shahar, tog‘ tepasida joylagani uchun “tog‘ tepasi” mazmunidagi nom berilgan) singari joy nomalarida ham mavjud. Abarning pahlaviy tilidagi

¹ Фирдоуси. Шах-наме. В девяти томах. Том 1. – М.: Наука, 1991. – С. 21.

shakli apar bo‘lib, u avestoviy “yuqori”, “oliy” ma’nosidagi upairi va shu mazmundagi sanskritcha upari bilan aloqadorlik kasb etadi¹. Bod “shamol” ma’nosida shabada (aslida shabboda) so‘zi tarkibida ham mavjud. Umuman, o‘zbek tilida “shamol” tushunchasini ifodalovchi 20 dan ortiq so‘z bo‘lib, ularning har biri funtsinal-semantik jihatdan bir-biri bilan farqlanadi². Bod shu ma’noda pahlaviyda *vat* shakliga ega bo‘lgan. “Avesto”da *vata* bo‘lgan bu so‘z turdosh ot sifatida “shamol”, atoqli ot sifatida shamol tangrisi nomini ifodalagan³. Abu Rayhon Beruniy “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida eroniylarning oy va kun nomlari ro‘yxatida “bod”; so‘g‘dlar va xorazmliklar oy va kun nomlari ro‘yxatida “voz” shaklida qayd etadi⁴. Osetin tilidagi “ruh”, “jon” ma’nolaridagi *ud* // *od* so‘zlari tahlilida V.Abaev uning ildizlari qadimgi eroniy wad – “shamol”ga taqalishini ta’kidlaydi. Olim shamol, el; jon; kuch-quvvat tushunchalari o‘rtasida mantiqiy bog‘liqlik borligini wat – “jon” va w’t’r – “mavjudot”; arabcha nafs – “jon” va nafas – “nafas”; parfiyan tilidagi wad – “jon”, “ruh” so‘zlarini qiyoslash, shuningdek, lotincha animus (jon) yunoncha (shamol)ga aloqadorligi kabi ko‘plab misollar bilan asoslaydi. Bod so‘zining xorazmiy tilida voz (xorazmiy tili fonetik tizimiga ko‘ra “z” interdental) ishlatilganini e’tiborga olsak, Xorazm shevalarida bad – bod (Xorazm-qipchoq lahjasida *pat*) so‘zi o‘zlashma emas, subsrat element ekanini oydinlashadi. Bu so‘z Xorazm shevalarida quyidagi ma’no qirralariga egaki, ular V.Abaevning qayd etilgan fikrlari asosli ekanini ko‘rsatadi: 1. kuch, zarb. Bod bilan urdu – kuchli zarb bilan urdi; 2. tez, elib. Bad bilan galdi – tez, elib keldi. Shuningdek, badli qipchoq lahjasiga mansub shevalarda patli so‘zi “kuchli”, “baquvvat”, ko‘chma ma’noda “boy”, “o‘ziga to‘q” mazmunlarida ishlatiladi.

¹ Шамсуддин бин Халаф Табризий. Бурҳони қотеъ. – Техрон: Амири кабир, 1375 х.ш. Жилди 1. – С. 79.

² Рустамов А. Сўз хусусида сўз. – Тошкент: Ёш гвардия, 1987. – Б.

³ Тиллаева М. Хоразм ономастикаси тизимининг тарихий-лисоний тадқиқи. (“Авесто” ономастикасига қиёслаш асосида): Филол. фанл. номз. дисс. автореф. – Тошкент, 2006. – Б. 13.

⁴ Абу Райҳон Беруний. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. Араб тилидан А.Расулов таржимаси. – Тошкент: Фан, 1968. – Б. 273.

Xullas, bar va bod birikuvi aynan “shamol uzra”, “shamolga” degani bo‘lib, biror narsani (xoh moddiy, xoh ma’naviy) yo‘qqa chiqarish, qo‘ldan berish kabi ma’nolarni anglatadi. Buni “elga sovurmoq”, “ko‘kka sovurmoq” kabi iboralarga qiyosan ham ko‘rishimiz mumkin. Ogahiyning quyidagi mashhur baytida barbod so‘zining ishlatilishi va bod so‘zidan keyin barning lug‘aviy ma’nosiga muvofiq “ustina” radifining kelishi orqali betakror so‘z o‘yini bilan muhim ijtimoiy fikr go‘zal ifodalanganini ko‘ramiz:

Xoki taning barbod o‘lur, oxir jahonda necha yil
 Sayr et Sulaymondek agar taxting qurib bod ustina.
 Bog‘da nogoh ko‘rdim kecha o‘zimni,
 Aql bu boshimdin *barbod* ayladi.
 Qafas ichra ko‘rdim bulbul munaqqash,
 Obodon ko‘nglimni noshod ayladi. 1 // 102.
 Yor yo‘linda jonim *barbod* aylayin,
 Yirtib yoqa dodi faryod aylayin,
 Ming qulimni barin ozod aylayin,
 Shifo bering go‘zal yorga jonlarim. 1 // 114.

Bodi havoning vositasi birlan tillarindin suxan zohir bo‘lar. Ammo mundog‘ bir naqshi xushro‘y yumshoqbadanliq bo‘lsa, qa’riya bo‘lg‘oy. Vazirbacha so‘radi: qa’riya degan na turur. 1 // 127.

Bu so‘zning “shamol” ma’nosi Xorazm folklor asarlari leksikasi tarkibida mavjud bodbon so‘zida ham ko‘rinadi. Bodbon “kema chodiri”, “elkan”¹ ma’nosini beradi.

Ushbu so‘z tarkibidagi -bon qo‘shimchasi bog‘bon, darbon kabi so‘zlarda shaxsning kasb-korini; marzbon, posbon kabilarda mansab nomlarini; didbon kabilarda fe’lning o‘tgan zamon o‘zagiga qo‘shilgan holda ham kasb-kor nomi, soyabon va tahlil qilayotganimiz bodbon kabilarda narsa-buyum nomlarini

¹ Иброҳимов С., Шамсиев П. Навоий асарлари луғати. –Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. Б. 123.

yasaydi¹. Shu o‘rinda qo‘shimchada qilib o‘tish mumkinki, Abu Rayhon Beruniy “munajjim xorazm tilida axtarvenik deyiladi. Buning izohi “oy manzillariga qarovchi” demakdir. Chunki, axtar oy manzillaridan biridir” – deb yozadi². Demak, “qarovchi” ma’nosidagi -bon xorazmiy tilida - ven shaklida bo‘lgan.

Xorazm folklor asarlari lug‘at tarkibida mavjud arabcha + forscha tarkibli xayrbod so‘zi “xayrlashish”, “vidolashish” ma’nolarini berib, undagi bod “shamol” ma’nosidagi zikr etilgan so‘zga aloqador emas. Bu yerda u forsiy boshad (bo‘lsin!) fe’lining qisqargan shaklidir. Shu tariqa xayrbod aynan “yaxshilik bo‘lsin!” demakdir.

Shuningdek, o‘zbek tilidagi o‘zlashmalardan muborakbod (arabcha + forscha tarkibli), mabodo so‘zlarida “bod”ning ushbu omonimi mavjud. Muborakbod aynan “muborak bo‘lsin!” degani bo‘lsa, mabodo hozirda ko‘pincha “agar” bog‘lovchisiga vazifadosh bo‘lib qolayotganiga qaramay, lug‘aviy jihatdan “aslo bo‘lmasin!” deganidir. Undagi ma- na- inkor yuklasining mumtoz shakli bo‘lib, kuchli inkorni anglatadi. Masalan, naxon – o‘qima, maxon – aslo o‘qima! kabi. “o” esa ma’noni kuchaytirish uchun orttirilgan “nido harfi”dir. Shu tarzda bodo kuchli istak bilan aytilgan “bo‘lsin!” mazmunini beradi. Masalan, “gar ishq nabuvad har chi bodo bodo” – “agar ishq bo‘lmasa har nima bo‘lsa, bo‘lsin!”. (Shayx Abu Sa’id Abulxayr). Shuning uchun aslini olganda, deylik, ko‘rishish istagi bilan “mabodo ko‘rishmasak” deyish to‘g‘ri, “mabodo ko‘rishsak” deyish noto‘g‘ri bo‘ladi.

Xorazm folklor asarlari leksikasidagi eroniy qatlamga mansub so‘zlarning ayrimlari fors tili uchun qo‘shma so‘z hisoblansa ham, o‘zbek tilida sodda tub sifatida qabul qilinadi. Chunki ularning ikki yoki uch tarkibiy qismlaridan biri, ayrim hollarda barcha komponentlari o‘zbek tilida mustaqil ma’noga ega emas. Eng muhimi, bunday so‘zlar tarkibini tashkil qilgan lug‘aviy birliklarning ayrimlari eski o‘zbek tilida alohida ma’noga ega bo‘lgan bo‘lsa ham, bu hukm

¹ Забони адабии ҳозираи тоҷик. – С. 141.

² Абу Райҳон Беруний. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. Араб тилидан А.Расулов таржимаси. – Тошкент: Фан, 1968. – Б. 282.

o'zgarmasligining boisi ular tilimizga tayyor leksema sifatida qabul qilingani, o'zbek tilining imkoniyatlari bilan yasalmagani, fors tilining o'zida shakllangani aniqligidir. Masalan, gumroh so'zi tarkibidagi gum so'zi ham, roh so'zi ham eski o'zbek tilida mustaqil ma'noga ega. Lekin bu so'z fors tilining o'zida shakllanib, eski o'zbek tiliga tayyor leksema tarzida kirib kelgani sababli uni tub so'z sifatida baholashimiz to'g'ri bo'ladi. Faqat etimologik tavsif yoki tarkibiy tahlil ehtiyoji bilangina bu tipdagi so'zlarni ma'noli qismlarga ajratamiz.

Gumrah so'zi tarkibidagi birinchi qism gum "yo'qolish", "yo'qotish" ma'nosini anglatadi. O'zbek tilida bu so'z bir qadar salbiy ma'noga ega. Sababi fors tilida yo'qol va yo'qol! mazmunlarining har ikkalasi ham "gum shav" ("gum shudan" – "yo'qolmoq"ning buyruq shakli) bilan ifodalanadi. O'zbek tilida gum bo'lmoq asl turkiy "yo'qolmoq" va arabiy so'z yordamida shakllangan "g'oyib bo'lmoq" fe'llarining sinonimi sifatida qo'shimcha ma'no ottenkasiga ega, deylik, "yo'qol" vaqtincha g'oyib bo'lishga, "gum bo'l" umuman g'oyib bo'lishga, shu ketgancha qaytib kelmaslikka amrni ifodalaydi. Shuning uchun shevalarda gum boldi biror narsa yoki shaxs g'oyib bo'lganiga quvonch mazmunini beradi. Lekin bu qo'shimcha ma'no ottenkasi o'zbek tilida keyinchalik shakllangan bo'lib, eski o'zbek tilida "gum bo'lmoq" "yo'qolmoq", "yo'q bo'lmoq", "yitmoq", "g'oyib bo'lmoq" kabi fe'llarga ma'noviy sinonim vazifasini bajargan.

Madadkoring bo'lsin ul shayxi Kabir,
Kofirlar qo'linda bo'lmag'il asir,
Ul gumroh kofirni qilg'aysan asir,
Olimjon g'azoting muborak bo'lsin.

Hasanxon der: o'zing ehtiyot ayla,
Urushga kirganda farosat ayla,
Savashda Alini yig'lab yod ayla,
Bor bolam, g'azoting muborak bo'lsin. 1 // 271.

Soʻzning ikkinchi qismi rah esa “yoʻl” degan maʼnoni anglatib, pahlaviyda rah va ras shakllarida boʻlgan bu soʻz qadimgi eroniyda rathya tarzida ishlatilgan. Fors tili tarixiy taraqqiyotida g – s fonetik hodisasi mavjud. Masalan, hozirgi gah pahlaviy tilida gas shaklida boʻlgani kabi. Rah soʻzining “dafʼa”, “yoʻla” maʼnolarini anglatishi oʻzbekcha yoʻl soʻzining mazkur maʼnolariga muvofiq keladi. Masalan, Alisher Navoiy gʻazaliyotidan: Bir yoʻli qutqar ulusning moʻjorosidin meni.

Xorazm folklor asarlarida rah tarkibiy qismli yana quyidagi soʻzlar mavjud:

Hamroh oʻzbek tilidagi “-dosh”ga muvofiq ham- old qoʻshimchasi va *roh* soʻzlaridan tarkib topib, Xorazm folklor asarlarida 1) yoʻldosh; 2) qoʻldosh, qoʻllab quvvatlovchi 3) hamsafar; safardosh maʼnolarida ishlatilgan.

Ushbu parchada soʻzning lugʻaviy maʼnosi hamda shu maʼno asosida yuzaga kelgan antroponimdan foydalanilgan:

Mundi ketar boʻlsang boshqa ellara,
 Bor *Hamrohim*, sogʻ bor, omon kelgaysan.
 Kulinji aylading mani ellara,
 Bor, *Hamrohim*, sogʻ bor, omon kelgaysan.

Shohimardon ustimizda daldadir,
 Bulbulning orzusi toza guldadir.
 Koʻnglim parishondir, koʻzim yoʻldadir,
 Bor, *Hamrohim*, sogʻ bor, omon kelgaysan.

Bulbul erdim, ayro ushdim gulimdin,
 Ayroiqli battar bildim oʻlimdin.
 Qoʻrqim koʻpdir sen chiqarsan alimdin,
 Bor, *Hamrohim*, sogʻ bor, omon kelgaysan.

Salbiniyoz der, endi keldim jona,

Bir arzim bor, deram, sohib zamona,
 Shod o‘lan kunlarim bo‘ldi g‘amxona,
 Bor, Hamrohim, sog‘ bor, omon kelgaysan. 1 // 11-12.

Rahnamo so‘zi rahning rah varianti va forsiy namudan – “ko‘rsatmoq” fe‘lining hozirgi zamon negizi n?ma birikuvidan tashkil topgan bo‘lib, aynan “yo‘l ko‘rsatish” degan mazmunni anglatadi

Tasavvufda jamiyat manfaatini o‘z manfaatlaridan ustun biluvchi futuvvat (javonmardlik) yo‘nalishiga mansub kishi fato yoki javonmard deb atalgan□. Ushbu so‘zning etimologiyasiga nazar solsak, u eroniy tillarga xos ikki asosdan tashkil topgan: javon yosh, baquvvat, jonzotlar (insoniyat, hayvonot va nabobot)ning yoshi, navjuvoni ma’nolarida “Avesto”da *y(a)van*, pahlviy tilida *yuvan*, armanchada *yovanak*, *yuvanak*, mazondaroniyda *javan*, gilon tilida *javan* kabi shakllarga ega¹. Mir Jaloliddin Kazzoziy ushbu so‘zni shu ma’nodagi frantsuzda *jeune*, inglizcha *young*, ispancha *joven*, nemischa *Yung* so‘zlari bilan umumiy o‘zakka ega ekanligini ta’kidlaydi. Olimning mulohazalarini frantsuz tili misolida tahlil qilsak, fonetik qonuniyatlar va semantik o‘zgarishlar e’tibori bilan bu fikr asosga ega ekanligini ko‘ramiz. Frantsuzcha *jeune* so‘zi quyidagi ma’nolarni anglatadi: yosh odam; yoshlikka tegishli; kuchli va chiroyli; yangi; yangi chiqqan narsa; kichik; hayvonlar haqida ishlatilganda esa hali katta bo‘lmagani². Shu jahatdan ruscha *юный* so‘zi ham mazkur guruhga mansub deb bilamiz.

Javonmardning ikkinchi qismi esa, hind-evropa tillarining ko‘pchiligi uchun umumiy bo‘lgan inson; er kishi mazmunida mard so‘zidir. Pahlaviy tilida mart bo‘lgan bu so‘z “inson” hamda “er (kishi)” ma’nosini anglatgan. Inson mazmunidagi so‘zning ayni paytda er jinsidagi odamni anglatishini ushbu so‘z bilan umumiy o‘zakka ega frantsuz, ispan, ingliz va nemis tillaridagi *homme*, *hombre*, *man*, *Man* so‘zlarida ham ko‘ramiz. Mir Jaloliddin Kazzoziy forsiy

¹ Шамсуддин бир Халаф Табризий.Бурҳони қотеъ. 2-жилд. Нашрга тайёрловчи ва этимологик изоҳлар муаллифи доктор Муҳаммад Муъин. – Техрон: Амири кабир, 1375 х.ш. – С. 596.

² Larous. – Paris: 2008. – P. 450.

“inson” ma’nosidagi mard va “o’lmoq” mazmunidagi murdan (o’tgan zamon o’zagi murd) o’rtasida mantiqiy bog‘liqlik borligini ta’kidlagan¹. Javonmard so’zi “Burhoni qote”da saxiy; saxovatli odam ma’nosidan tashqari “qassoblar pirini ham Javonmard ataydilar” deb izohlanganki, bizningcha, mazkur mazmun Kayumard (Kayumars) mifologik nomi bilan bog‘liq.

Lug‘aviy jihatdan “yosh kishi”, “yigit” ma’nosini anglatgan ushbu so‘z eski o‘zbek tilida quyidagi ma’nolarni anglatgan:

1. Javonmardlik tariqatiga mansub kishi, o‘zgalar manfaatini o‘z manfaatidan yuqori qo‘yadigan inson. Bu toifa fatiy, fato, ayyor deb ham yuritilgan²: (Abu Usmon Hiri...) Zamonining imom va yagonasi erdi... Andin so‘rdilarkim, javonmard kimdur? Dedi: ulkim, o‘zin ko‘rmagay³ (A.Navoiy)

2. Talab yo‘liga kirgan, Haq taqdiriga rizo kishi: Shayx Abubakr Vositiy debdur, Muhammad Hasan Javhariy dedikim, birav Zunnundin duo talabi qildi. Zunnun javob berdikim, ey javonmard, agar sanga bir ish Haq taoloning azal taqdirida muqarrar bo‘lubdur, baso, qilmag‘on duolarki mustajobdur va agar ul bo‘lmaydur, suvga tushganga qichqirg‘ondin ne sud? ... va bo‘g‘zig‘a suv ko‘prak borg‘oy. (Alisher Navoiy).

3. O‘zini haqir tutuvchi “zohiri malomat va botini salomat” (Shamsiddin Tabriziy ta’biri) kishi: (Abulxayr Habashiy...) Shayx Amu va Shayx Abbos aning diydorig‘a faxr kilurlar ermish. Ul Makkada mujovir erdi. Bir kun birav Masjidi Haramg‘a kirdi va dedi: qayondurlar alarkim, alarni javonmard atarlar? Va sufiylar sari boqti haqorat bila. Va dediki, bular javonmardlardurlar? Bir lahzadin so‘ngra Shayx Abulxayr Habashiyni ko‘rdilarki, kulur erdi haybat va g‘azab bila, Ul so‘zni bilib erdiki, ul kishi der erdi. Dedi: kimdurki, javonmardlarni so‘rubdur? Javonmard kerakki, javonmardni ko‘rgay. (Alisher Navoiy).

¹ Мир Жалолиддин Каззоий. Номаи бостон. Жилди 1. – Техрон: САМТ. 1379 х.ш. – С. 181.

² Комилов Н. Тасаввуф. 1-китоб. – Тошкент: 1997.; Минг бир рубойи. Форс тилидан Эргаш Очилов таржимаси. – Тошкент: Фан, 2009. – Б.102.

³ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 17-жилд. – Тошкент: Фан, 2001. – Б. 64. Асардан олинган кейинги мисоллар ҳам шу нашрдан бўлиб, қавс ичида бетлари кўрсатилади.

Ushbu parcha tasavvuf tarixida shariat va tariqatni komil pirlar qo'lida o'rganmay turib, javonmardlikni da'vo qilgan ayrim shaxslar ularning obro'siga salbiy ta'sir qilgan, buning natijasida ba'zan xalq manfaat o'rnida ziyon ko'rgan hollari ham bo'lganini eslatadi. Buni mashhur murshid va shoir Abusa'id Abulxayrning quyidagi ruboiysi ham tasdiqlaydi:

Hargohki, bini du-se sargardonro,
 Ayb rahi mardon natvon kard onro.
 Taqlidi du-se muqallidi bema'ni
 Badnom kunad rahi *javonmardonro*¹.

Mazmuni: Bir-ikkita boshi aylanganlarni ko'rib, mardlar tariqatiga ta'na qilish yaramaydi. Bir-ikkita bema'ni taqlidchi javonmardlar yo'li (tariqati)ni badnom qiladi.

4. G'oyat saxovatli kishi: (Abu Abdulloh Muqriy...) mashoyixning javonmardlaridin erdi va alarning saxiyrog'i. Anga ellik ming diram meros etti. Borini fuqarog'a nafaqa qildi va vahdatu tajrid bila haj ehromi bog'ladi. (Alisher Navoiy).

5. Murid: Mir Ali Abu buzurg pire erdi. Bir muridni bor erdi, oti Muhammad Shahrobodiy. Bir kun ul muridni bozorga yubordi, bir nima kelturgali. Ul bozorga bordi, hamono ul nimani olur vajh hozir yo'q erdi, filhol o'zin sotti va Pir tilagan nimani olib yubordi. Chun necha kun bu savdodin o'tti, ul kishiki, ul muridni sotqun olib erdi, aning qilg'an ishiga muttale' bo'ldi, ani ozod qildi, to Pir qoshig'a keldi. Amir Ali anga dedikim, ey javonmard, necha ming yil bizing jonimiz g'aybda sening ofarinishing ishqida kuyar erdi, ul bas ermas erdiki, bu zohir firoqi xam kerak erdi, bir hafta zohir qurbi ham kerak. (Alisher Navoiy).

Xorazm folklor asarlarida mard va javon so'zlari bilan bog'liq quyidagi so'zlar qo'llanilgan:

Va'da etsam *javonlari*,
 Bedov minib sayronlari,

¹ Dorj 3. Kitabha. Al-rams. www.mehkrarkham.com.

Ahli suluk eshonlari,
 Pirlar ollo yoring bo'lsin. 5 // 122.
 Pandim senga haddin oshib so'zlama,
Mard o'g'liman, benikohni sevmanam.
 To o'lguncha yomon yo'lni ko'zlama,
Mard o'g'liman, benikohni sevmanam. 3 // 191.
 Hech bir kimsa xabar olmas holimdin,
 Man *nomardam*, agar do'nsam yo'limdin,
 Tohir aytar, mastman, qo'rqmam o'limdin,
 Qursalar oldimdan yuz-ming dor endi. 5 // 13.
 Tohirjon, bu yo'lda *mardona* bo'lg'il,
 Bu kun ishqning savdosig'a tushmisham.
 Jonim qurbon sanga, jonona bo'lg'il,
 Bu kun ishqning savdosig'a tushmisham. 5 // 13.
 Ishq o'ti tutashsa yolg'on jahona,
 Yondirar kul qilib ushbu zamona,
 Sansan ishqning yukin chekkan mardona,
Mardona bo'l, Zuhrajonim, qayt endi! 5 // 23.
 Ko'nglim *mardona* bo'l *mardliging* so'yla,
 Chiqarsan daryodan, oqmassan bo'yla,
 Injima sarg'ayma bir dam sabr ayla,
 Etarsan maqsadli makona ko'nglim. 3 // 32.

3.2. Arabiy qatlamga xos so'zlarning tarkibiy tahlili. Xorazm folklor asarlarida qo'llanilgan arab lug'aviy qatlamiga mansub so'zlarning tarkibiy tahlilini amalga oshirish, birinchidan, Xorazm folklor asarlarigina emas, balki eski o'zbek tilidagi ayrim arabiy birliklarning qo'llanishi, ularning semantikasida yuz bergan o'zgarishlar xususida ma'lum tasavvurlar bersa, ikkinchidan, ushbu qatlamga mansub ba'zi so'zlarning shakllanish jarayoni va ular asosida yasalgan

soʻzlarda eski oʻzbek tilining derivatsion imkoniyatlari haqida xulosalar beradi.

Arab lugʻaviy qatlamiga mansub soʻzlar tarkibiy jihatdan dastlab tub soʻzlar va yasama soʻzlarga ajraladi.

Tub soʻzlar yasamadan faqat bitta lugʻaviy maʼnoga ega komponentdan tashkil topishi, tarkibida yasovchi affiks mavjud boʻlmasligi bilan xarakterlanadi. Masalan, *kitob*, *ishq*, *muhabbat* kabi. Shu oʻrinda eski oʻzbek tili uchun ham, hozirgi oʻzbek tili uchun ham sodda soʻz sifatida qaraladigan birliklarning aksariyati aslida yasama boʻlib, arab tilidagi ichki fleksiya qoidalari asosida yuzaga kelganini qayd etish lozim. Ular tilimizga tayyor leksema sifatida qabul qilingani, ularning yasalişida turkiy tillar yasaliş tizimining oʻrni boʻlmagani bois sodda soʻz sifatida baholanishi toʻgʻri boʻladi. Tarkibiy tahlil natijasidagina ularning aksariyati yasama ekani oydinlashadi. Arabiy oʻzlashmalarning tarkibiy tahlilini esa arab tilining ishtiyoq (fleksiya) qonuniyatlariga asoslanmasdan turib amalga oshirish mumkin emas. Manbalardagi arabiy oʻzlashmalarni bu tarzda tahlili Xorazm folklor asarlarida oʻzlashmalarning qoʻllanish sababi, xalq ijodkorlarining sinonimlardan foydalanish mahorati kabi jihatlarni yoritishga xizmat qiladi.

Arabiy soʻzlarning tarkibida oʻzakning qanday xarakter (masalan, undoshlar soni, ularning takroriy yoki takroriy emasligi)da ekanini hisobga olish muhimligi bois ularning tarkibiy tahlilini quyidagi shaklda amaga oshirish maqsadga muvofiq:

3.3.1. Solim feʼllardan yasalgan soʻzlar. Arabshunoslikda hamza ishtirok etmagan yoki bir xil undosh ikki marta takrorlanmagan feʼllar sahih feʼllar hisoblanishi qayd etiladi. Ular arab grammatikasiga oid qoʻllanmalarda sahih feʼl, toʻgʻri feʼl terminlari bilan ifodalangan. Xorazm folklor asarlarida sahih oʻzaklar asosida yasalgan soʻzlarning aksariyatini uch undoshli feʼl masdarlarining turli vaznlarida hosil boʻlgan turlari tashkil etadi, shuningdek, sulosiy (uch undoshli) oʻzak asosida shakllangan boshqa ayrim boblarga tegishli birliklar ham mavjud.

Arab tilidagi feʼllarning asosiy qismi uch undoshli ekani maʼlum. Bunday

fe'llarning masdarlari ma'lum bir vazn (qolip)ga bo'ysunmaydi. Ularga Xorazm folklor asarlari lug'at fondidan ayrim misollar keltiramiz:

Fu'l qolipi. Masalan, *qurbon* so'zining o'zagi bo'lgan *qurb* so'fiy adiblar ijodida irfoniylar ma'no kasb etgani ko'rinadi: Abu Ja'far aytiki, bu'd va yirog'liqdur. Boshin erga qo'ydi. Ham ul aytti, bu'd va yirog'liqdur,.. (Alisher Navoiy).

Qurb so'zi ham o'z antonimi *bu'd* bilan aynan bir qolipda hosil bo'lgan bo'lib, "yaqinlashmoq, yaqin bo'lmoq" mazmunidagi qaruba yoki qariba fe'lining masdari sanaladi. Navoiy g'azaliyotidagi quyidagi baytda ham *qurb* so'zi irfoniylar istiloh sifatida namoyon bo'ladi:

Ey hamd o'lub mahol fasohat bilan sanga,
Andoqki, qurb taqvovu toat bilan sanga¹.
Qurbon o'lam qoshlaringga, ko'zingga,
Dol bo'yingga, qomatingga, yuzingga,
Sadqa bo'lsin shirin jonlar so'zingga,
Qondir labingdagi bola sevdigim. 2 // 31.
Sanga payvastadir joni jahonim,
Sansan toji sarim, ruhi ravonim,
Sanga *qurbon* bo'lsin bu shirin jonim,
Yo'lingda fidodir bu jon G'aribim. 2 // 34.

Bahr so'zining tarkibiy tahliliga nazar solsak, eski o'zbek tili uchun ham, hozirgi o'zbek adabiy tili uchun ham tub so'z sanalsa-da, arab tili ichki fleksiya (ishtiyoq) qoidalariga yasaliş uchun asos bo'lgani sababli mushtaq, ya'ni yasama sanaladi. Arab xalqining turmush tarzi va somiy xalqlar yashab kelayotgan hudud geografiyasini hisobga olsak, bu so'zning o'z o'zagi "hayron bo'lmoq, cho'chimoq, hurkmoq"² bilan qandaydir mantiqiy bog'liqligi borligini sezamiz. Eski o'zbek tiliga ham "daryo", "katta daryo", "dengiz" ma'nolarida o'zlashgan ushbu so'z arab tilida

¹ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Учинчи том. – Тошкент: Фан, 1988. – Б. 27.

² Носиров О., Юсупов М. Ан-наъим. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2003. – Б. 46.

ko'chma ma'noda umuman kenglik, erkinlik mazmunlarini kasb etganini shu o'zak asosida "ozod (cho'ri bo'lmagan) ayolning qizi" ma'nosidagi "bahira" so'zida ham ko'ramiz. Uning arab tilidan o'zlashgan "okean" ma'nosi hozirgi o'zbek tilida poetik nutqda bo'lsa ham ishlatiladi: "Bir yonda lojuvard Bahri Muhit bor". (A.Oripov). Xorazm folklor asarlarida ushbu so'z asl va ko'chma ma'nolarida ishlatilgan o'rinlar uchraydi: Qozi ko'rub ta'zim qildi va dedi: sharqdin g'arbqa bahru barni kezdim, dinni tozavu tar Hirotida toptim! (Navoiy). Misoldagi *bahru bar* juft so'zi aynan "dengiz va quruqlik", juft so'zlarda ma'no kengayishi va umumlashishi hisobiga "butun olam" ma'nosini beradi. Xorazm folklor asarlarida ushbu juft so'z komponentlari almashgan holda ishlatilgan:

Tushmam judolik dardina,
Ketaram Bag'dod shahrina
Ko'z yumib g'amning *bahrina*,
Yor uchun botmali bo'ldim. 2 // 14.
Yorning qo'li *bahrobozli*, doimo suhbatli, sozli,
To'ti og'izli, gul yuzli, g'uncha dahonim oldurdim,.. 2 // 94.

Barru bahr juft so'zi "har taraf", "har tomon" mazmunini bermoqda. "Muhabbat dengizi" mazmunidagi "muhabbat bahri" kabi birikmalarda bu so'zning ko'chma ma'nosi zohir bo'ladi:

Ta'kidlash kerakki, eski o'zbek tilida aruz atamasidan tashqari (aruzdagi bahr aynan "dengiz" ma'nosidagi so'zdan kelib chiqqan) yana bir shu shakldagi so'z mavjud bo'lib, u genetik jihatdan fors tiliga aloqadordir. "bahra"; "hissa, ulush"; "uchun" ma'nolarini beruvchi bu so'z sanskrit tilida *bhadra* shaklida bo'lib, "hissa, ulush" ma'nosidagi *barx* bilan o'zakdosh sanaladi. Qadimgi fors tilida baxtra, "Avesto"da baxadhra tarzida ishlatilib, pahlaviyda bahr, bahrak shakllarini olgan¹.

Bahra olmam bu vatandin,

¹ Шамсуддин бир Халаф Табризий. Бурхони қотей. 2-жилд. Нашрга тайёрловчи ва этимологик изоҳлар муаллифи доктор Муҳаммад Муъин. – Техрон: Амири кабир, 1375 ҳ.ш. – С. 364.

Shirin jonim chiqar tangdin,
 Shohsanam der kechdim sandin,
 Ketgil G'arib, turma munda. 2 // 40.

Yuqorida qayd etganimizdek, eski o'zbek tiliga o'zlashgan arabiy so'zlarning mutlaq ko'pchiligi arab tilidagi ishtiqoq qoidalariga muvofiq tarkibiy jihatdan yasamadir. Masalan, "shuhratilik, oshn-shuhrat"; "taniqlilik" ma'nosidagi ishtihar so'zi aslida "ma'lum qilmoq", "xalqqa bildirmoq", "e'lon qilmoq" ma'nosidagi shahara yoki shahura fe'lining VIII bobi ishtahara – "tarqalmoq"; "mashhur bo'lmoq"ning masdari sifatida shakllangan. Chunki, uch undoshli solim fe'llarning masdari sakkizinchi bobda ifte'ol qolipida hosil bo'ladi. Shuning uchun bu bob arabshunoslikda ifte'ol bobi ham deyiladi. Mazkur bob anglatgan fe'llarning mazmunlaridan biri birinchi bobdagi fe'l o'timsizga aylanadi. Eski o'zbek tilida shu so'z asosida ishtihor topmoq fe'li shakllangan. Bu so'z bilan o'zakdosh mashhur, shuhrat kabi so'zlar hozirgi o'zbek adabiy tilida keng iste'molda bo'lsa, eski o'zbek tilida unga o'zakdosh yana "oy" (vaqt birligi) ma'nosidagi shahr so'zi ham mavjud. Oy ma'lum vaqt birligini anglatib turishi, ma'lum qilib turishi e'tiborga olinib, ushbu fe'l asosida paydo bo'lgani ehtimolga yaqin. Bu so'zni fors tiliga mansub hududiy-ma'muriy birlik ma'nosidagi shahr so'zidan farqlash lozim.

Xorazm dostonlari leksikasidan uch undoshli solim fe'llar asosida tashkil topgan arabiy o'zlashmalargsha yana quyidagilarni misol tariqasida keltirish mumkin:

Alqissa Tohir so'zini tamom etib, ollodan madad so'rab ko'nglini ollog'a bog'lab yo'lg'a ravona bo'ldi. Shunda sandiq birdan daryo suvining kuchli *zarbi* bilan qirg'oqda turg'on katta toshga borib urildi. Bu *zarbdan* sandiqning ponalari, mixlari bo'shashg'anday bo'ldi. 5 // 32.

Tog'lariga cho'kar abru-siyohlar,
 Jilg'asida unar turli giyohlar,
 Kaptari, yaylovi, baland qoyalar,
 Tarlon *maskan* tutg'on tog'dan ayrildim. 5 // 42.

Qattig' *tariqi* rohi zan,
 Bo'ynimga bog'lab san kamon,
 Iqbolim kech, baxtim yomon,
 O'rnimki, zindondir maning. 5 // 80.

Bu esa *shariatga* to'g'ri kellar,-deb, nikoh qiyib, Tohirjon bilan Mohimjonni
 bir maydonda qoldirib qo'yib qaytdilar. 5 // 40.

Shamsi qamar yuzli, qoshi hilolim,
 Men sanga *oshiqman*, o'zinga ma'lum,
 Majnunman ishqingda, Layli misolim,
 Qizil gulim, olma, norim, qol endi. 5 // 75.
 Qodir olloh badr aylamish jamolim,
 Go'yo ikki qoshim hilola dushmish.
 Ollo G'arib bersa shugun misolin,
 Go'yo bulbul kabi bidola dushmish. 5 // 238.

Bobda tahlil qilingan materiallar asosida xulosa:

- eroniy qatlamga mansub so'zlarning aksariyati tarixan yasama bo'lib, ularning barchasi affiksatsiya usulida yasalgan;
- arab lug'aviy qatlamiga mansub so'zlarning ham aksariyati yasama bo'lib, ko'pchiligi uch undoshli solim fe'llarning turli qoliplarida hosil qilingan. Shu bilan birga noto'g'ri fe'llar asosida yuzaga kelgan so'zlar ham ma'lum miqdorda ishlatilgan.

UMUMIY XULOSALAR

1. O'zbek xalqinig katta ma'naviy mulki bo'lgan Xorazm folklor asarlarilarini lingvistik tadqiq etish, birinchi navbatda ulardagi o'zlashma so'zlarni lingvistika va tarix fani materiallari asosida puxta o'rganishni talab qiladi.

2. Xorazm folklor asarlaridagi o'zlashma so'zlarning mavzuiy-semantik tasnifida tadqiqot obyekti materiallari, unda bayon qilingan davr yoki Xorazm folklor asarlari voqealarida bayon qilingan hududning ijtimoiy-siyosiy tuzumi, davlat boshqaruv tizimiga o'xshagan jihatlarga alohida e'tibor qaratish zarur bo'ladi.

3. O'zlashma so'zlarga mansub ayrim so'zlarning ko'chma ma'nosi, omonimi ham bo'lishi mumkinligini Xorazm folklor asarlari lug'at tarkibi ham ko'rsatib beradi.

4. O'zlashma so'zlar tizimida o'z qatlamga mansub so'zlar miqdori ko'plab omillar bilan bog'liq ravishda o'zgarib turadi.

5. Eroniy qatlamga mansub so'zlarning ayrimlari fonetik variantlarda ishlatilgan. Ulardan ba'zilari hozirgi o'zbek adabiy tilida faol qo'llaniladi. Shu bilan birga ushbu so'zlarning Xorazm folklor asarlarida anglatgan ma'nolari hozirgi o'zbek adabiy tilida bildirgan ma'nolaridan farq qiladi. Bu so'zlarning ko'pchiligi sinxron jihatdan tub so'z hisoblansa ham, etimologik tahlil ularning aksariyati tarixan yasama ekanini ko'rsatdi.

6. Tahlilga tortilgan so'zlarning ayrimlarini sinxron jihatdan ma'noli qismlarga ajratish mumkin. Ular, asosan, arabcha+forscha, forscha+forscha va forscha+turkiy tarzida hosil qilinganligi kuzatildi.

7. Xorazm folklor asarlari lug'at fondida substrat sifatida qarash mumkin bo'lgan so'zlar ham uchraydi.

8. Xorazm folklor asarlari davomida eroniy va arabiy qatlamga mansub aksar so'zlarning turkiy muqobili ishlatilganini xalqimizning o'zlashma so'zlardan foydalanish mahorati mezonlaridan biri deb qarash mumkin.

9. Eroniy qatlamga mansub soʻzlarning aksariyati tarixan yasama boʻlib, ularning barchasi affiksatsiya usulida yasalgan.

10. Arab lugʻaviy qatlamiga mansub soʻzlarning ham aksariyati yasama boʻlib, koʻpchiligi uch undoshli solim fe'llarning turli qoliplarida hosil qilingan. Shu bilan birga notoʻgʻri fe'llar asosida yuzaga kelgan soʻzlar ham ma'lum miqdorda ishlatilgan.

11. Eroniy qatlamga mansub soʻzlarning aksariyati tarixan yasama boʻlib, ularning barchasi affiksatsiya usulida yasalgan.

12. Arab lugʻaviy qatlamiga mansub soʻzlarning ham aksariyati yasama boʻlib, koʻpchiligi uch undoshli solim fe'llarning turli qoliplarida hosil qilingan. Shu bilan birga notoʻgʻri fe'llar asosida yuzaga kelgan soʻzlar ham ma'lum miqdorda ishlatilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat. 2008.
2. Bravmann M.M. Background, 220-227; Babinger F. Wazir, – EI, 4, 1229-1300.
3. Bravmann M.M. The original meaning of arable wazir.– DI. 1961, 37, 260-263, 1962, 38, 314.
4. Gibb H. A. R. The evolution of government in early islam. – StI. 1955, 4, 5 - 7.
5. Goltein S.D. The origine of the vizirate and its true character. – Studies, 168-196.
6. Madelung W. Early sunni doctrine of faith as reflected in the Kitab al-Iman of Abu 'Ubayd al-Qasim b. Sullam (d. 224/839).– StI. 1970, 32, 233-254.
7. Smith W.C. Faith as Tasdiq. Theology, 9-119; Garda L. Īman. – El, NE, 3, 1199-1202.
8. Sourdel D., Lambton K.S. Khalifa.– El. NE, 4, 937-950.
9. Tyan E. Institutions u droit publique musulman. I. Le califat; 2. Le califat et sultanat. P., 1954-1957.
10. Абдулхайров М. “Девони Мунис” тилининг лексик қатламлари: Филол. фанлари номз. дисс. автореф. – Тошкент, 1974.
11. Алишер Навоий.
12. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. Биринчи том. – Тошкент: Фан, 1987.
13. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. Йигирма томлик. 1-том. – Тошкент: Фан, 1987.
14. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. Йигирма томлик. 3-том. – Тошкент: Фан, 1990.

- 15.Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Иккинчи том. – Тошкент: Фан, 1987.
- 16.Баскаков Н.А. Титулы и звания в социальной структуре бывшего Хивинского ханства // Советская тюркология. – 1989. – №1.
- 17.Бафоев Б. Навоий асарларилари лексикаси. – Тошкент: Фан, 1983. – 157 б.
- 18.Бегматов Э. Ўзбек исмлари маъноси. – Тошкент: Ўзбек миллий энциклопедияси, 2007. – 608 б.
- 19.Бекбаулов О. Қаҳарманлық эпостың, араб-парсы лексикасы ҳам аның тарихый-лингвистикалық характеристикасы. Нөкис, Қарақалпақстан. 1979.
- 20.Боголюбов М.Н. Несколько иранских этимологий // Вопросы грамматики и истории восточных языков. – М.-Л., 1958.
- 21.Боровков А.К. Лексика среднеазиатского тефсира XII-XIII вв. – М.: 1963.
- 22.Ғиёсиддин Рампурий. Ғиёсу-л-луғот. – Лакҳнау: 1886. – С. 324.
- 23.Гўрўғли, Урганч, 2004. (Нашрга тайёрловчилар С.Р.Рўзимбоев, С.С.Рўзимбоев, Г.Эшчанова).
- 24.Дадабаев Х. Военная лексика в староузбекском языке: Автореф. дисс ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1981. – 21 с.
- 25.Дадабаев Х. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв. – Ташкент: Ёзувчи, 1991. – 186 с.
- 26.Дадабаев Х. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв. – Ташкент: Ёзувчи, 1991.
- 27.Дадабаев Х. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв. – Ташкент: Ёзувчи, 1991.
- 28.Дадабоев Ҳ. Тарихий ҳарбий терминлар луғати. – Тошкент: Университет, 2003.

- 29.Заринов Х. “Ўзбек халқ ижоди” кўп томлигига кирадиган асарларни тайёрлаш принциплари // Ислом шоир ва унинг халқ поэзиясида тутган ўрни. – Тошкент: Фан. 1978.
- 30.Ислам. Энциклопедический словарь. – Москва: Главная редакция восточной литературы, 1991.–С.268.
- 31.Ислом. Справочник. – Тошкент, 1989.
- 32.Исмоилов И. Туркий тилларда қавм-қариндошлик терминлари. – Тошкент: Фан, 1966. – 150 б.
- 33.Исмоилов И. Туркий тилларда қавм-қариндошлик терминлари. – Тошкент: Фан, 1966. –150 б.
- 34.Исхаков Ф. Наблюдения по лексике в области прилагательных в тюркских языках // Историческое развитие лексики тюркских языков. – М. 1961.
- 35.Ишаев А. “Чамбил” сўзининг этимологияси // Ислом шоир ва унинг халқ поэзиясида тутган ўрни. – Тошкент: Фан, 1978. – Б. 100-103;
- 36.Ишаев А. Достонлар тилининг баъзи бир хусусиятлари // Эргаш шоир ва унинг достончиликдаги ўрни. – Тошкент: Фан, 1971. – Б. 73-80.
- 37.Ишаев А. Халқ достонлари лексикасига оид кузатишлар // Ўзбек тили ва адабиёти. 1980. №5.– Б. 57-64.
- 38.Ишаев А. Халқ достонлари лексикасидан // Ўзбек халқ ижоди. – Тошкент: Фан, 1977. – Б. 167-176;
- 39.Ишаев А. Шохсанамнинг ватани қаер? // Фан ва турмуш. 1971. №11. – Б. 26-27.
- 40.Лившиц В.А., Хромов А.Л. Согдийский язык // Основы иранского языкознания. Среднеиранские языки. – М.: Наука, 1981.
- 41.Мамадов Х. Лексико-стилистические особенности художественной прозы Алишера Навои: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Ташкент,. 1960. – 21 с.

- 42.Маҳмудов Қ. А.К.Боровков эски ўзбек тили луғатларининг тадқиқотчиси сифатида // Ўзбек тили тарихи масалалари. – Тошкент: Фан, 1977.
- 43.Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Биринчи том. – Тошкент: Фан, 1960.
- 44.Мир Жалолиддин Каззозий. Номаи бостон. Жилди 1. – Техрон: САМТ. 1379 ҳ.ш.
- 45.Мухторов Ж., Санакулов Ў. Ўзбек адабий тили тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи. 1995.
- 46.Мир Жалолиддин Каззозий. Номаи бостон. Жилди 1. – Техрон: САМТ. 1379 ҳ.ш.
- 47.Мусаев К.М. Лексика тюркских языков в сравнительном освещении. – М.: Наука, 1975.
- 48.Муъин М. Фарҳанги форсий. 4-том. – Техрон: Амири Кабир, 1996. – С. 5241.
- 49.Мўминова А. Ўзбек тилида мансаб ва унвон номларининг лексик-семантик таҳлили: Филол. фанл. номз. дисс. – Тошкент, 2000. – 156 б.
- 50.Номиханов Ц. Исследования по тюркским и монгольским языкам: Автореф. дисс. ...док. филол. наук. – Алма-Ата, 1966.
- 51.Носиров О., Юсупов М. Ан-наъим. Арабча-ўзбекча луғат. –Тошкент: Тошкент Ислом университети нашриёти, 2003. – Б.
- 52.Носиров Ш. Шевалар лексикасининг соҳалар бўйича группалари // Ўзбек шевлар лексикаси. – Тошкент: Фан, 1991. – Б. 120-180.
- 53.Навоий асарлари луғати. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972.
- 54.Наджип Э. Тюркский язык делийского солтана XIV века // Советская тюркология. – 1982. – №2.
- 55.Носиров О., Юсупов М. Ан-наъим. Арабча-ўзбекча луғат. –Тошкент: Тошкент Ислом университети нашриёти, 2003.

- 56.Ошиқнома, I китоб, Урганч, 2006; (Нашрга тайёрловчилар С.Р.Рўзимбоев, С.С.Рўзимбоев, Г.Эшчанова).
- 57.Ошиқнома, III китоб, Урганч, 2008; (Нашрга тайёрловчилар С.Р.Рўзимбоев, С.С.Рўзимбоев, Г.Эшчанова).
- 58.Ошиқнома, IV китоб, Урганч, 2009. (Нашрга тайёрловчилар С.Р.Рўзимбоев, С.С.Рўзимбоев, Г.Эшчанова).
- 59.Персидско-русский словарь. Том I. – М.: Русский язык, 1983.
- 60.Покровская А.А.Термины родства в тюркских языках // История развитие лексики тюркских языков. – М.: Издательство АН СССР, 1967.
- 61.Расулов Р. Синтаксические связи между словами в дастане “Алпомыш”. Автореф. дис ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1975. 24 с.
- 62.Персидско-русский словарь. Том I. – М.: Русский язык, 1983.
- 63.Радлов В.В. Опыт словаря тюркских наречий. I.ч. 2. – СПб. 1911. – С. 1122-1123.
- 64.Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. Иккинчи том. – Тошкент: Университет, 2001.
- 65.Рашид-ад-дин. Сборник летописей. Т. I. Кн.1. Перевод с персидского Л. А. Хетогурова. – М., 1952. – С. 89.
- 66.Рашид-ад-дин. Сборник летописей. Том I. Кн.1. Перевод с персидского Л. А. Хетогурова. – М., 1952.
67. Рўзимбоев С.С. Жанубий Хоразм дostonларининг лисоний хусусиятлари.(“Шаҳриёр” ва “Маликаи Завриё” кўлёзма дostonлари асосида). Филол. фанлари номзоди ... дисс ... автореф ... – Тошкент, 2000, 25 б.
- 68.Сариев С.М. Хоразм “Тўрўғли” дostonларининг кўлёзма вариантлари. Филол. фанлари номзоди ... дисс ... автореф ... – Тошкент, 2007, 23 б.
- 69.Туркий тилларда баъзи бир сўзлар этимологияси ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. 1986. №4.

70. Туркий тилларда тўнғич, кенжа, эгизак сўзлари // Ўзбек тили ва адабиёти. 1975. №2.
71. Турсунов С. “Алпомиш” достонининг лексик-фразеологик хусусиятларига доир” // Ўзбек тили ва адабиёти”. 1986. №3.
72. Турсунов С. Лексические особенности дастана “Алпомиш”. Автореф. дис ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1990. 19 с.
73. Умаров Э. Лексико-грамматическая характеристика фразеологизмов «Хазойин-ул-маъоний» Алишера Навои: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Л, 1968. – 17 с.
74. Ўразбоев А. Огаҳийнинг “Риёз уд-давла” асарида ижтимоий-сиёсий лексика: Филол. фанлари номзоди ... дисс. – Тошкент, 2009.
75. Ҳоди Зариф. Фольклор ва археология материалларини қиёсий ўрганиш масалаларига доир // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. 1968. №1.
76. Холиқов А.А. “Тўрўғлининг туғилиши” достони тилининг лексик-семантик хусусиятлари. Филол. фанлари номзоди ... дисс ... автореф ... – Тошкент, 2009, 24 б.
77. Холманова З. “Бобурнома” лексикаси. – Тошкент: Фан, 2007.
78. Холмедова З. Ўзбек тилининг қарноқ шеваси лексикаси: Филол. фанлари номз. дисс. автореф. – Тошкент, 2006.
79. Холмонова. З. “Шайбонийхон” достони лексикаси”. Филол. фанлари номзоди ... дисс ... автореф ... – Тошкент, 1998, 23 б.
80. Чориев З. Тарих атамаларининг қисқача луғати. – Тошкент: Шарқ, 1999.
81. Шаабдурахманов Ш. О поэтических особенностях языка поэмы “Равшан” Эргаша Джуманбулбул оглы.// Общественные науки в Узбекистане. 1970. №10.
82. Шамсуддин бин Халаф табризий. Бурҳони қотъ. – Техрон: Амири кабир, 1375 ҳ.ш.
83. Шоабдурахмонов Ш. “Равшан” достони ҳақида // Эргаш шоир ва унинг дostonчиликдаги ўрни. 2-китоб, – Тошкент: Фан, 1971, – Б. 146-172.

84. Шоабдурахмонов Ш. Равшан достонида бадиий фонетика элементлари // Ўзбек халқ ижоди. – Тошкент: Фан, 1967.
85. Шоабдурахмонов Ш. Эргаш Жуманбулбул дostonларида ифода ва тасвирийлик // Ўзбек тили ва адабиёти. 1970, №5. – Б. 43-50.
86. Юсуф Б. Туркча-ўзбекча ва ўзбекча-туркча луғат. – Тошкент: Ўзбекистон, 1993.
87. Хусанов Н. XV аср ўзбек ёзма ёдгорликлари тилидаги антропонимларнинг лексик-семантик ва услубий хусусиятлари. I китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1996. – 125 б.
88. Хусанов Н. XV аср ўзбек ёзма ёдгорликлари тилидаги антропонимларнинг лексик-семантик ва услубий хусусиятлари. II китоб – Тошкент: Ёзувчи, 1997. – 134 б.
89. بزرگترین کتابخانه شعر فارسی.. درج ۳. Al-rams. www.mehrahgam.com.
90. قاموس المحيط www.dorar.net.